

**YUSUPOVA Z.X.**

**DISK  
ULOQTIRUVCHILARNING  
HARAKATLANISH  
PARAMETRLARINI  
BIOMEXANIK TAHLIL QILISH  
ASOSIDA MAXSUS KUCH  
TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI RIVOJLANTIRISH  
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI

YUSUPOVA ZEBO XUSANOVNA

**DISK ULOQTIRUVCHILARNING  
HARAKATLANISH PARAMETRLARINI  
BIOMEXANIK TAHLIL QILISH ASOSIDA  
MAXSUS KUCH TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**MONOGRAFIYA**

Monografiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2022 yil 30 noyabrdagi Kengashining 4-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.

**TOSHKENT  
“O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU-2023**

UO'K : 796.012  
KBK : 75.0(Я73)

“Disk uloqtiruvchilarning harakatlanish parametrlarini biomexanik tahlil qilish asosida maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish”: Monografiya / Yusupova Z.X.: T-“O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU 2023 - 128 bet.

**Akbarov A** – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi professori v.b., f.-m.f.n  
**Nasriddinov K.R** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Fizika kafedrasi professori, f.-m.f.d

Mazkur monografiya disk uloqtiruvchilarning maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar ularning texnik va jismoniy tayyorgarligini oshirishga hamda tanlangan biomexanik tahlil usullari va vositalarni qo'llash uslublarining ushbu sohadagi ma'lumotlarni, nazariy bilimlarni boyitish hamda mashg'ulot jarayonini optimallashtirish imkonini yuzasidan ishlab chiqilgan moduli bo'yicha ilmiy asoslashdan iborat.

Monografiya talabalarga, magistrantlarga, katta ilmiy-xodim izlanuvchilarga, doktorantlarga hamda sport mutaxassislari va murabbiylarga tavsija etiladi.

### Taqrizchilar:

Monografiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2022 yil 30 noyabrdagi Kengashining 4-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.

UO'K : 796.012  
KBK : 75.0(Я73)

ISBN 978-9910-766-01-5

© ©Yusupova Z.X. 2023  
© “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU. 2023

## Mundarija

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I Disk uloqtiruvchilarning maxsus kuch BOB tayyorgarligini biomexanik harakatlanish ko'rsatkichlari bo'yicha adabiyot materiallari tahlili.....</b>	<b>8</b>
§ 1.1 Disk uloqtirishni bajarish fazalari va tamoyillari....	8
§ 1.2 Mushak kuchi topografiyasi.....	15
§ 1.3 Disk uloqtirish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilar shug'ullanuvchilarida disk uloqtirish mashq elementlarining qo'llanilishi.....	27
<b>II Disk uloqtiruvchilarning jismoniy BOB tayyorgarlik darajasini sport natijalariga ta'siri.....</b>	<b>36</b>
§ 2.1 Disk uloqtiruvchi sportchi talabalarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari.....	36
§ 2.2 Disk uloqtiruvchilarning sport pedagogik mahoratini oshirish mashg'ulotlarida o'quv yuklamalarining taqsimlanishi.....	41
§ 2.3 Disk uloqtirish sportchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasining shakllanganligi dinamikasi.....	45
§ 2.4. Disk uloqtiruvchi sportchilarning texnik biomexanik tahlil asosida tayyorgarlik dinamikasini shakllantirish.....	56
<b>III Disk uloqtiruvchilarning maxsus kuch BOB tayyorgarligini biomexanik harakatlanish ko'rsatkichlarini maxsus mashqlar majmuasi yordamida takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba natijalar muhokamasi.....</b>	<b>68</b>

§ 3.1	Disk ulotiruvchi sportchilar uchun ishlab chiqilgan mashg'ulotlarning optimallashtirilgan yuklamalar dasturining qiyosiy tahlili.....	68
§ 3.2	Disk uloqtiruvchi sportchilari uchun ishlab chiqilgan dasturning sport natijalarini rivojlantrishdagi ahamiyati.....	80
§ 3.3	Disk uloqtiruvchilarning maxsus kuch tayyorgarligini biomexanik harakatlanish ko'rsatkichlarini maxsus mashqlar majmuasi yordamida takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba natijalari muhokamasi.....	16
<b>Xulosalar</b>		116
<b>Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.</b>		118

## KIRISH

### Monografiya mavzusining dolzarbliги.

Dunyo miqyosida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Insonning jismonan sog'lom, aqlan yetuk, kuchli, irodali, matonatli bo'lib tarbiyalanishida sport turlarining o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda yengil atletika sport turlari dunyo miqyosida keng ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biri hisoblanmoqda.

Ayniqsa, insonlar yengil atletika turlari bilan doimiy ravishda shug'ullanib, uning texnikasini yuksak darajada egallash orqali yuqori sport natijalarini qo'lga kiritayotganligi alohida e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, dunyoda yengil atletikaning disk uloqtirish turini rivojlanishida iqtidorli bolalarni jalg etish, ularning sport mahoratini oshirish, ular bilan o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jahon olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihat shundaki, yengil atletika nazariyasi va uslubiyati amaliyotida yosh sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik, psixologik, intellektual va funksional tayyorgarligida qo'llaniladigan vosita va usullarni o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etish hamda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish yuzasidan ko'plab ilmiy izlanishlarni o'tkazishni talab etmoqda.

Hozirgi vaqtda yengil atletikaning disk uloqtirish turida natijalarning jadal o'sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan iqtidorli sportchilarni izlab topish barobarida o'quv-

mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda ushbu soha mutaxassislarining o'quv jarayonlarini takomillashtirish, mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish, jismoniy sifatlarini oshirish masalalari tadqiq etilmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh murabbiy-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda"<sup>1</sup>.

Mazkur islohotlar bugungi kunda xalqaro musobaqlarida sportchilarimiz yuqori sport natijalarni qo'lga kiritib, O'zbekistonni davrug'ini butun dunyoga tanitmoqda. Shunday bo'lsada, bugungi kunda disk uloqtirish bo'yicha yurtimizda o'tkazilayotgan sport musobaqlardagi natijalarni qiyosiy tahlil etsak, 45-48 m. atrofidagi natijalar bilan kifoyalanilayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa disk uloqtirish bo'yicha sportchilar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni talab etib kelmoqda. Yurtimizda disk uloqtirish mashg'ulotlarida sport texnikasi elementlarini o'rgatishning eng samarali uslublaridan foydalanish sport amaliyotining dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 3 noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi** disk uloqtiruvchi sportchilarning aylanib uloqtirishni bajarish texnikasini va maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

- disk uloqtiruvchi sportchilarning biomexanik harakatlanish ko'rsatgichlarini texnik tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib diskning uchib chiqish o'rtacha tezligi, diskning uchib chiqish burchagini ratsionallashtirish hisobiga yuzaga kelgan har bir xatoni korreksiyalashga qaratilgan majmua taklif etilgan;
- disk uloqtiruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligida (FREEMGE va G-WALK yordamida) sportchilarning aylanishga tayyorgarlik ko'rish, aylanishda oyoqdan-oyoqga o'tish va uloqtirishda tormozlanish fazalar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish hisobiga uloqtirish biokinematikasini o'zlashtirish jarayoni takomillashtirilgan;
- disk uloqtiruvchilarning kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun diskning harakatlanishida aerodinamik harakat trayektoriyasidagi imkoniyatidan kelib chiqib ko'p kuch sarf qilinadigan mashqlarni dinamik va statik faoliyattdagi mashg'ulotlarga kiritish hisobiga maxsus kuch tayyorgarligi takomillashtirilgan.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 3 ноубрдаги "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомillashtiriш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПК-4877-сонли қарори. lex.uz.

## **I–Bob. Disk uloqtiruvchilarning maxsus kuch tayyorgarligini biomexanik harakatlanish ko'rsatkichlari bo'yicha adabiyot materiallari tahlili**

### **§ 1.1. Disk uloqtirishni bajarish fazalari va tamoyillari**

Disk uloqtirishning sport turi sifatidagi tarixi birinchi qadimgi yunon olimpiya o'yinlari vaqtlaridan, ya'ni eramizdan oldingi VIII asrdan boshlangan bo'lib, hozirgi vaqtlargacha anchagina sezilarli darajadagi o'zgarishlarga uchragani ma'lumligi aniq asosdir.

Bu sport turining zamonaviy rivojlanish bosqichida disk uloqtirish texnikasini, sport trenirovka uslubiyotini, turli–tuman anjom–uskuna, qurilma va moslamalarini doimiy takomillashishi sodir bo'lmoqda. Aynan shu munosabat bilan disk uloqtiruvchilarni tayyorlash jarayonida vujudga keladigan savollar juda ham ko'p sonli bo'lib, ular o'tib borayotgan asrlar davomida ham dolzarbligicha qolmoqda.

Mualliflar Nikitin V.I., Okishev D.S a'lumotlariga ko'ra, qadimgi yunon sportchilari ham, xuddi hozirgi paytdagi singari, disk chekkasini yerga tomon yo'naltirgan holda uloqtirganlar. Shuning uchun ham ko'p yillik tarixga qaramay, uloqtirish texnikasi juda ham takomillashtirilganligi ko'rinish turibdi. Buning tasdig'i sifatida 1896 yilda bo'lib o'tgan birinchi hozirgi zamon Olimpiadasi g'olibining ko'rsatgan natijasini – 29 m. 15 sm.ni keltirish mumkin.

Bizning zamonamizda sportni shiddat bilan rivojlanishi disk uloqtirish bilan shug'ullanuvchilarning sonini ahamiyatli darajada ortib ketishiga olib keldi. Bu esa, tabiiyki, o'zgarishlarga uchrab borayotgan disk uloqtirish texnikasini, uloqtiruvchini o'z jismoni imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish orqali, tobora takomillashib borishiga hamda diskni tobora uzoqroq uloqtirishga olib keldi .

Disk uloqtirish yaxlit va uzlusiz, shu bilan birga yetarli darajada texnik jixatdan tez bajariladigan jarayon hisoblanadi.

Biroq, tahlil jarayonini oson va qulay bo'lishi uchun ushbu yaxlit hamda uloqtiruvchi diskni qo'lgan olgan paytdan boshlab, uloqtirish aylanasiga kirish, qo'lidan dikni uchib chiqish va sportchini o'zini to'xtash paytigacha bo'lgan oraliqdan tashkil topgan jarayonni bir nechta, quyida keltirib o'tilgan, fazalarga bo'lib o'rganish mumkin.

Disk uloqtirishning birinchi fazasi. Bu uloqtirishga tayyorgarlik ko'rish va qo'llarni yoyishdir. Uloqtiruvchi diskni qo'lga olib, aylanani ichiga kiradi, aylanada dastlabki holatni egallaydi, diskni uloqtiruvchi qo'lga qulay joylashtiradi, qanot qo'llar ikki yonga yoyiladi.

Disk uloqtirishning ikkinchi fazasi bulib, bu xolatda qo'llar yoyilgan xolatda harakatni bajarib, ikkala oyog'ida turgan uloqtiruvchi uloqtirish tomoniga diskli qo'lini yuqoriroq va ikkinchi qo'lini nisbatan pastroq ushlab yoyilgan holda burish harakatini boshlaydi. Shu harakatni shartli ravishda, o'ng o'q atrofida start aylanish fazasi deb aytish mumkin. Ushbu fazadan boshlab diskning uloqtirish jarayonidagi o'z o'qi atrofida harakatlanishidagi tezligini ortib borishi boshlanadi. Bu faza o'ng oyoqni yerdan uzish vaqtigacha davom etadi oyoq yerdan uzilsa bu faza yakunlanadi.

Disk uloqtirishning uchinchi fazasi. Bu fazada uloqtiruvchi o'zining aylanma harakatini va oldinga intilishini bir oyoqda turib davom ettirishdir. Buni biz chap o'q atrofida startli aylanish fazasi deb aytamiz. Ushbu faza xam chap oyoqni yerdan uzilgan paytidan boshlab vazifasi yakunlanadi.

Disk uloqtirishning to'rtinchi faza yoki burilish fazasidir. Bu faza uloqtiruvchi gavdasi taxminan 180 gradus burchakka buriladi. U o'ng oyoqni yerga qo'yish paytigacha davom etadi.

Beshinchi faza – final kuchlanish fazasi oyoqlar yordami bilan amalga oshiriladigan energiyani snaryadga uzatish fazasi. Oyoqlar mushaklari, gavda va uning qismlari va, ancha kam darajada, qo'llar snaryadga tezlikni uzatadi. O'ng qo'l snaryadni optimal uchib chiqish burchagi ostida kerakli yo'nalishda yo'naltiradi.

Oltinchi fazasini – tormozlanish fazasi. Disk uloqtirishning tormozlanishdan maqsad – aylanadan chiqib ketmaslik uchun bir vaqt ni o‘zida jismning (sportchining) tezligini o‘chirgan holda turg‘un holatini saqlash. Bu tayanch chap oyoqdan o‘ng oyoqqa sakrash va vertikal o‘q atrofida jismning aylanishini davom etishi hisobiga amalga oshiriladi. Uloqtirishning yakunlovchi bosqichida uloqtiruvchining aylanish burchak tezligi 10 rad/s gacha yetadi – bu taxminan, sekundiga 1,6 aylanaga teng bo‘ladi.

Bir qator fikriga ko‘ra disk uchish erkak va ayol sporchilarning disk uloqtirish texnikasida diyarli farqlar bo‘lmaydi, yagona farq – bu snaryadning massasi. Snaryadni uchib chiqish burchagi ob-havo sharoitlariga, shamolning yo‘nalishiga va tezligiga bog‘liq bo‘ladi. Shamolsiz havoda, shamol yo‘nalishi snaryadni uloqtirish yo‘nalishi bilan mos tushgan holda (“elkan samarasi” – “effekt parusa”), snaryad 33–36° burchak ostida yo‘naltiriladi. Tadqiqotchi olimlar fikriga ko‘ra, tajribali disk uloqtiruvchilar, qarama-qarshi essayotgan shamoldan foydalanib, shamolsiz ob-havo sharoitiga nisbatan o‘z natijalarini 6 m.gacha oshirganlar. [7; 128–b., 88; 85–b].

Disk uloqtirish texnikasi bo‘yicha adabiyot manbalari materiallarini tahsil qilish musobaqa natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillarni ajratish imkonini berdi. Bunday omillarni, shartli ravishda, ikki kichik guruhlarga bo‘lish mumkin. Birinchi kichik guruh disk uloqtirishning umumiy tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi esa mazkur harakatlanish amalini bajarishning texnik tomonlari bilan bog‘liq. Uloqtirish jarayonida sportchi snaryadga qanchalik katta kuch bilan ta’sir ko‘rsatish vaqt [69; 185–b].

Uloqtiruvchi-sportchining kuchini snaryadga ta’sir ko‘rsatish vaqt qanchalik uzoq vaqt davom etsa, ya’ni uloqtiruvchining snaryadga ta’sir o‘tkazish yo‘lini uzoqligi;

Disk qanchalik yuqori balandlikdan uloqtirilgan bo‘lsa; Aerodinamik xossalarni ham inobatga olgan holda, diskni uloqtirish

burchagiga qanchalik aniqroq riosa qilingan bo‘lsa, diskni uchib borish uzoqligini shuncha katta bo‘ladi.

Ushbu umumiy tamoyillarning bajarilishini ta’minalash uchun mualliflar quyidagilarni taklif etishgan:

Diskka tezlik berish jarayonini ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqichda (start va final kuchlanishning birinchi yarmi) uloqtiruvchi, yaxlit tizim sifatida qaraladigan, o‘z tanasiga va diskka ma‘lum tezlik beradi. Ikkinci bosqichda (final kuchlanishning tugashi) uloqtiruvchi, o‘z mushak kuchlari ta’siri bilan ham, unga ortiqcha harakat miqdori momentini (aylanma harakat tezligini ortishi) va harakat miqdorini (ilgarilanma harakatni ortishi) uzatish hisobiga ham, diskning tezligini oshiradi. [28; 164–b. 46; 185–b].

Kuchlanish – kuchning snaryadga ta’sir ko‘rsatish ko‘rsatkichi – disk uloqtirishning asosi. Biroq, disk uloqtirishda katta harakatlanish yo‘lida diskka ta’sir ko‘rsatadigan maksimal kuchni vujudga keltira olishni bilishni o‘zi yetarli emas, yana shu yaratilgan kuch bilan diskni harakati davomida optimal radius bo‘yicha ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lish kerak. Bu kuchdan foydalanish samaradorligini yaxshilaydi: markazga intiluvchi kuchni kamaytiradi va bevosita diskni tezligini ortishiga zamin yaratadigan urinma kuchni oshiradi.

Ritm harakatning shunday vaqt va kuch elementlari orasidagi nisbatidan yig‘ilishi kerakki, uloqtiruvchi uloqtirishning butkul jarayoni davomida optimal kuchlanishni saqlab tura olishi kerak bo‘ladi. Uloqtiruvchi disk tizimiga ikki tayanchli holatlarda eng katta, bir tayanchli holatlarda esa eng kam kuch bilan ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tayanchsiz holatlarda uloqtiruvchining hech qanday kuchlanishlari disk tezligini ortishigi olib kelmaydi.

Uloqtiruvchi uloqtirish jarayonida diskni, uning optimal harakat yo‘lini ta’minalaydigan va diskka eng yaxshi ta’sir ko‘rsatiladigan radiuslar bo‘yicha harakatlantirishi kerak.

Uloqtirishning butun jarayonida uloqtiruvchi disk tizimiga ham, final kuchlanishda diskni o'ziga (oddiy) tezlik berishda ham, tezlikni diskka eng yaxshi uzatilishi shunday holda sodir bo'lishi mumkinki, uloqtiruvchi to'liq jamlangan va bosiq holatda (tos o'qiga nisbatan yelkalar o'qi ortda qolganda) bo'lsa. To'liq jamlanganlik va bosiqlik birinchidan, uloqtiruvchining diskka ta'sir ko'rsatish kuchi yo'lini orttirish, ikkinchidan, ushbu ta'sir ko'rsatish kuchini uloqtiruvchining mushaklarini dastlabki cho'zish hisobiga final kuchlanishni eng yaxshi amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Siltanish shunday tarzda bajarilishi kerakki, butun uloqtirish jarayonida, birinchidan, diskning optimal katta radius bo'yicha harakatlanishini, ikkinchidan, kuchlanishga rioxay qilinishini, uchinchidan esa uloqtiruvchining finalda diskka eng yaxshi (kuchli va samarali) ta'sir ko'rsatishini ta'minlanishi kerak.

Uloqtirish yo'nalishiga orqa bilan turadigan, uning tovonlari shunday joylashgan bo'lishi kerakki, tos o'qi bu yo'nalishga taxminan perpendikulyar bo'ladi uloqtiruvchining start holati uloqtiruvchining ta'sir ko'rsatish kuchini eng katta faol yo'lini va oyoqlarning kuchidan eng yaxshi foydalanishni ta'minlaydi.

Diskni otish usulining o'zi va uning uchish xarakteri uloqtiruvchining aylanma harakati asosiy bo'lib hisoblanishiga zamin yaratadi. Biroq, disk uloqtirish bo'yicha eng yuksak natijalarga faqatgina disk uloqtiruvchining aylanma harakatiga yana ilgarilanma haraktni ham qo'shish bilan erishish mumkin. Quyidagi misolni keltirish mumkin: disk uloqtiruvchining starta "tayyorlanadi" va "burilishdagi harakat", finalda esa to'lig'icha harakatni bajarishdan iborat

Uloqtirishning asosiy natijasi final kuchlanishda yaratilsa ham, muvaffaqiyatsizlikka uchragan uloqtirishning 75 % i dastlabki harakatni boshlash jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar oqibatida sodir bo'ladi.

Disk uloqtirishda start, bevosita disk tezligini oshirish yo'li bilan ham, burilishni va final kuchlanishni eng yaxshi bajarilishini ta'minlash tufayli – bilvosita yo'l bilan ham, snaryadni uchib borish uzoqligini oshirish imkoniyatini yaratishi kerak.

Bir tayanchli start ikkala tovonlarni bordaniga burilishidagi startning birinchi fazasida tovonlarni yerga tegmasligi bilan xarakterlanadi.

Bir tayanchli startda oyoqlarning yetakchilik roli chap tizzanbingurchak tezligi chap yelkaning va o'ng tizzanbingurchak tezligi o'ng yelkaning burchak tezligidan katta bo'lgan holdagina ta'minlanadi. Bir tayanchli startning birinchi fazasi (o'ng o'q atrofida burilish) start tezligining eng katta tashkil etuvchisi yaratiladigan ikkinchi fazaga (chap o'q atrofida burilish) tayyorgarlik hisoblanadi. Faqat chap oyoq yaxshi ishlaganda jismni aylanaga tushishi uloqtiruvchining startdagagi tezkor ilgarilanma harakatini ta'minlashi mumkin. Uloqtirishning ixtiyoriy bir variantida ham startdan finalga o'tish fazasi passiv hisoblanadi.

Tayanchsiz fazada uloqtiruvchi yaxshi guruhlanish hisobiga tizimning burilish tezligini va diskning harakatlanish tezligini oshirishi, ya'ni burilishni qisman passiv fazadan faoliga aylantirish mumkin. Uloqtiruvchini bir vaqtida ikkala oyoqlariga, biroq o'ng oyoqqa o'tkazilgan massa bilan, qo'nishga intilishi startda oyoqlarning ishini tezlashtiradi, tizimni burilishdagi aylanish tezligini oshiradi va yanada ratsional ikki tayanchli final kuchlanishni bajarilishini ta'minlaydi.

Diskka eng katta ta'sir kuchi faqat ikki tayanchli holatlarda yaratilishi sababli ham harakatlar shunday tuzilishi (tashkil etilishi) kerakki, bunda ikki tayanchli final kuchlanishning boshlanish paytida disk uzoqroqda orqada bo'lishi kerak va uloqtiruvchi unga imkonli boricha kattaroq yo'l davomida ta'sir ko'rsatishi, ya'ni uzunroq final kuchlanishini amalga oshirishi mumkin bo'lsin.

Uzunroq ikki tayanchli final kuchlanish chap oyoqni o'z vaqtida qo'yilishi va uloqtiruvchining startda oyoqlar mushaklaridan, finalda esa gavda mushaklaridan, maksimal foydalanishga zamin yaratadigan to'liq jamlanganlik va bosiq holatini yuqori darajasi mavjudligida bo'lishi mumkin, chunki ular katta yo'l davomida va samarali dastlabki cho'zilishdan keyin ish bajarishadi.

Finalda yelkalar va qorin mushaklaridan samarali foydalanish uchun uloqtiruvchi ularni harakatning boshlang'ich fazalarida ishga qo'shmasligi kerak, chunki bu, diskning harakatini tezlashtirsa ham, yelka kamarining burilishiga olib keladi (chaqiradi), biroq oyoqlarning faol ishini kamaytiradi va bu, o'z navbatida, diskning tezligini pasaytiradi.

Ikki tayanchli final kuchlanishni boshlanishidan oldin diskka ta'sir etish yo'llini oshirish uchun uloqtiruvchi tanasining uloqtirish yo'nalishiga nisbatan qarama-qarshi yon tomonga umumiyoq og'ishiga erishishi kerak, bu og'ishga o'ng oyoqni egish zamin yaratadi.

Finalda uloqtiruvchining diskka ta'sir ko'rsatish kuchidan foydalanishni yaxshilanishi diskning harakatlanish radiusi oshirilganda sodir bo'ladi. Startni boshlanishidan deyarli diskni aynan uchishigacha yelkalar bir xil sathda (balandlikda) joylashgan bo'lishi kerak.

Diskni uloqtirish jarayonining asosida yotadigan aylanma harakatning xususiyatlari masalan yadro irg'itishdagiga nisbatan yuqori bo'ladigan tayanch bilan yaxshi kontakt mavjudligini talab qiladi.

Disk uloqtirish texnikasi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilib va ularning mazmunini tushunib, disk uloqtiruvchi bu texnikaning hamma shakllari ham maqsadga muvofiq emasligini, hamda disk uloqtirishning ratsional texnikasi yetarli darajada yaxlitligini va ayrim sportchilar texnikasidagi farqi uloqtiruvchining jismoniy sifatlari ma'lumotlari bilan aniqlanishini ko'radi mualliflarning fikriga ko'ra, erkak disk uloqtiruvchilarni tayyorlash uslubiyoti bilan

ayollarni tayyorlash uslubiyotida jiddiy farqlarning mayjud emasligi muammosi uloqtiruvchilarning sport trenirovkasi jarayonida eng muhim muammolardan biri hisoblanadi [38; 240–254-b., 26; 46-b].

Sport mashg'uloti muammolari bo'yicha ko'pchilik taddiqotlarda sinaluvchilar sifatida erkak – sportchilar jalg qilingan, va ko'pincha ularning ko'rsatgan natijalari avtomatik ravishda, ayrim hollarda esa ziyon keltirgan holda bo'lsa ham, ayol-sportchilar trenirovkalariga ko'chirib o'tkazilgan [25; 28–29-b., 47; 185-b.]. Ayollar kontingenti bilan amaliy ish jarayonida sportchi ayolning organizmida sodir bo'ladigan funksional siljishlarni va organizmni turli yo'nalishlardagi jismoniy yuklamalarga beradigan reaksiyasini inobatga olish prinsipial muhim [41; 27-b].

Bu bevosita musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida, sportchi ayollarning mavsumni bosh (eng muhim) musobaqalarga (Olimpiada o'yinlari, Juhon va Yevropa championatlari, Juhon va Yevropa kuboklari va shu singarilar) tayyorlash jarayonida ularni maksimal yuqori sport natijalariga keltirish (olib kelish) paytida alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda disk uloqtiruvchi ayollar trenirovkalarida musobaqa oldi bosqichida, ko'pchilik, aynan o'sha, erlar foydalangan trenirovka dasturlaridan foydalanadi, faqat, tabiiyki, yuklamaning umumiyoq hajmi 15–20 % ga kamaytirib qo'llanadi.

## §1.2. Disk uloqtiruvchilarning mushak kuchi topografiyasini tuzilishi

Diskni uloqtirish texnikasidan kelib chiqib – siltanib harakatlanishga asoslangan mashqlar – disk uloqtiruvchilar ko'p foydalanadigan eng muhim mashqlar hisoblanadi. Siltanish harakatlari uloqtiruvchining aylanish radiusini va buyumning harakatlanish tezligini oshirish uchun qo'llanadi [95; 78-b].

Siltanish harakatlarda (har xil uloqtirish turlarida) qo'l to'g'rilangan holda ushlab turiladi.

Uni dastlabki gavda orqasiga o'tkazish, ya'ni siltanish, qo'l kamarining oldinga harakatini hamda yelka va qo'lning boshqa bo'g'inlari harakatini amalga oshiradigan mushaklarning cho'zilish darajasini kuchaytiradi.

Mushaklarning dastlabki cho'zilgan holati, ularda elastik deformatsiya kuchlarini vujudga kelishi munosabati bilan, ularning keyingi qisqarish amplitudasini ortishiga zamin yaratadi. Qo'lning o'zidan diskning sportchi gavdasiga nisbatan aylanish radiusini oshirish uchun foydalaniladi. Shu tufayli, gavda orqali o'tadigan vertikal o'q atrofida jismning aylanish vaqtida ega buladigan markazdan qochma kuch kattaligi ortadi. Qo'llar kamarining oldinga tomon yo'nalishi bo'yicha harakatga keltiradigan mushaklar, asosan, qo'l sohasidagi uloqtirish paytida ishlaydigan mushaklar hisoblanadi [72; 84-b].

Ijro texnikasining alohida xususiyatlari sababli uloqtiruvchilarda o'zining alohida shikastlanishlarni va tayanch-harakatlanish apparati kasalliklarini lokallashtirish xususiyatlari ajralib turadi. Masalan, disk uloqtiruvchilarda bular shundan iborat bo'ladiki, ularda tizza bo'g'ini sohasi eng ko'p (62 %) shikastlanadi. Shikastlanish chastotasi bo'yicha bundan keyingi, ikkinchi o'rinda umurtqa pog'onasining kamar qismi, panjalar, yelka va boldir-tovon bo'g'inlari joylashgan. Oldingi qorin bo'shlig'i devorining shikastlanishi 2 % dan ko'proq ekanligi kuzatildi. Yadro uloqtiruvchi og'ir yadroni barmoqlari bilan ushlashi kerak, shu bilan bir vaqt ni o'zida, yadroni uloqtirish amalga oshirilishi bilanoq uning katta qayd qiluvchi kuraksimon mushaklari qo'lning pastga harakatini sekinlashtirishi kerak.

Bosqon va diskni uloqtirish markazdan qochma harakatni tashkil qiladi va u yelka bo'g'inini yelka ortidan bajariladigan snaryadni uloqtirishga nisbatan shikastlanish olishining kamroq imkoniyatini vujudga keltiradi

Diskni uloqtirishda qo'llar mushaklari maksimal ishga jalb qilingan mushaklar guruhlari hisoblanadi [99; 28-b].

O'z ishlarida uloqtiruvchilarining soni, boldiri, tovonning tovonosti eguvchilarini yig'uvchi va to'g'rilovchi mushaklarining maksimal va nisbiy kuch ko'rsatkichlarini bat afsil tahvilini amalga oshirgan. Majmuaviy amalga oshirilgan tadqiqotlarda olingen ob'ektiv natijalar strukturaviy-tanlovli mashqlarni tabaqalashtirib qo'llanishiga asoslangan holda ishlab chiqilgan uslubiyotning samaradorligini va mazkur uslubiyotni yosh uloqtiruvchilarining sport trenirovksi jarayonida qo'llanishi maqsadga muvofiqligini isbotlaydi.

Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyot materiallarini umumlashtirish va nazariy tahlil qilish hamda shaxsiy tadqiqot natijalari bosqon uloqtiruvchilarni tayyorlash jarayonida kuch tayyorgarligining an'anaviy uslubiyoti empirik jihatdan formallahganligini, mushaklar kuchining rivojlanishi samaradorligi darajasini va ularning oyoqlarni zvenolar ichki va zvenolararo sathdag'i nisbiyligini ta'minlay olmaganligini, musobaqa mashqlarining talab qiladigan talablariga harakatlanish apparatini moslashuvchi qayta qurilishiga ob'ektiv aks etmasligini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan, uloqtiruvchilarda qo'llarning biodinamik zvenolari egiluvchi va to'g'rlanuvchi mushaklarining samarali rivojlantirilishiga yo'naltirilgan innovatsion-maqsadga muvofiq vositalarni ishlab chiqish va tadbiq qilish zarurati dolzarblashtirilgan. Medvedev O.V amalga oshirgan tadqiqot natijalari uloqtiruvchilarining ularni sport mahoratini oshirish jarayonida quyidagi harakatlanish apparatining moslashuvchi qayta qurish ixtisoslashtirilganliklarini aniqlash imkonini berdi.

- son, boldir va tovon biodinamik zvenolari darajasida oyoqlar mushaklarining maksimal kuchi ko'rsatkichlari tekis tezlanib o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi hamda sport ustasi normativlari darajasida o'zining pikiga erishadi;

- oyoqlarning yig'uvchi va yoyuvchi mushaklari kuchi kattaliklarining o'zgarishi ularni rivojlantirishning tekisligini va turli

vaqtdaligini aks ettiradi;

- chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashganlik va sport takomillashtirishi bosqichlarida mushaklar kuchining o'sish templari sezilarli darajada kamayadi;

- kuchni rivojlantirishning eng katta intensivligi tovonning tovon tagligi үчун (3-sport razryadidan sport ustasigacha) qayd qilingan;

- sport genezisida oyoqlarni yig'uvchilarining roli oyoqlarning yoyuvchilar roliga nisbatan ustivorligi qolaveradi

Olimlar tomonidan yuqori mahoratli sportchilar bilan amalgalashuvchilar tanasi yig'uvchi va yoyuvchi zvenolari kuchining yuqori darajadagi garmonlashishi aniqlangan hamda har bir alohida zvenoda va zvenolar o'rtasida yig'uvchi va yoyuvchilarini kuch asimmetrisiini kamaytiruvchi mushaklarning nisbiy kuchini konvergensiysi kuzatilgan [69; 28–29-b]. Mushaklar kuchlarining zvenolararo disbalansining chegaralari sezilarli qisqargan, zvenolararo chegaralar esa maksimal darajada va ishonchliz jinsiy ixtisoslashganligini yo'qotgan.

Snaryadga tezlikni uzatishda ma'lum ketma-ketlikda ishlaydigan tananing turli zvenolari va mushaklarning turli guruuhlari ishtirot etadi. Shuning bilan birga, keyingi harakatlar go'yoki oldingilarini ustiga qo'shilishi, harakatni davom ettirishi kerak. Oyoqlar (sonning va boldirning yig'uvchi va yoyuvchi mushaklari, tovonning tovon osti mushaklari) mushaklari ishlay boshlaydilar, keyin yelkaning, ko'krakning va qorinning katta mushaklari, yelkaning ikkiboshli va uchboshli mushaklari, bilak mushaklari guruhining deltamison mushaklari ishga tushadilar, panjalarning mushak kuchlari esa ishni tugallaydi.

Bu sport uloqtirishini samarali texnik bajarishning qoidalaridan yana biridir. Tananing turli zvenolarini ma'lum ketma-ketlikda pastdan – yuqoriga final kuchlanish fazasida ishga qo'shish hisobiga harakat miqdorini quyi zvenolardan yuqori zvenolarga ko'chirilishi sodir bo'ladi, shuningdek bu yerda har bir guruhdagi cho'zilgan

mushaklar ishga tushiriladi va har bir zveno joiyda turib emas, balki tezlikda harakatlangan holda ishga qo'shiladi.

Shuning bilan birga, zvenolarning tezligi quyi chegaradan yuqori chegaraga tomon ortib boradi [51; 130-b]. Sportchilarning antropometrik, vazn-bo'y ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarga qo'yiladigan yuqori talablar uloqtiruvchilarining trenirovkasi jarayonida eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Mualliflar ma'lumotlarga ko'ra, uloqtiruvchilarining hamma turlarida Olimpiada o'yinlari g'oliblarining vazn-bo'y ko'rsatkichlari va finalchilarining o'rtacha vazn-bo'y ko'rsatkichlari bir-birlaridan kam farq qiladi, bu esa yuqori mahoratli sportchilarga antropometrik talablarni stabillashganligidan dalolat beradi [11; 207-b., 12; 2–9-b., 18; 293-b.]

Ushbu ma'lumotlarni uloqtiruvchilarining turli trenirovka bosqichlarida istiqbollik darajasini aniqlashda inobatga olinishi zarurligi shak-shubhasiz. Shuning bilan birga, disk uloqtiruvchilar uchun qo'llarni qulochlash ko'lami singari antropometrik ko'rsatkich ulkan ahamiyatga ega bo'ladi. 1.1-jadvalda bo'lg'uvchi uloqtiruvchilarini saralashda tavsiya etiladigan antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

### 1.1-jadval

#### **Bo'lg'uvchi uloqtiruvchilarini saralashda foydalilaniladigan antropometrik ko'rsatkichlar (Ushakova O.E., 2012)**

Ko'rsatkichlar	Jinsi	Yoshi (yil)			
		9–10	11–12	13–14	15–16
Tana uzunligi (sm)	O'smir	145–151	153–156	160–170	175–180
	Qiz	143–149	152–155	156–162	164–172
Qo'l qulochi ko'lami (sm)	O'smir	150–160	160–170	172–185	185–195
	Qiz	145–150	156–160	162–170	170–180

So'nggi 20–30 yillar davomida hamma yengil atletika uloqtirish turlarida bo'y-vazn ko'rsatkichlarini doimiy o'sib borishi kuzatiladi. Hozirgi vaqtida sportchining jinsidan qat'iy nazar uloqtiruvchining baland bo'yli va katta vaznli ma'lum tipi shakllandi. Biroq, bo'y niqbatan uncha baland bo'limgan uloqtiruvchilarni xalqaro miqyosdagi yuksak natijalarga erishgan hollari qayd etilmoqda [61; 18–26-b].

Bir guruh tadqiqotchi mualliflar – tomonidan disk, nayza va yadro uloqtirishda tana uzunligi, son va boldir aylanasi uzunligi ko'rsatkichlari bo'yicha jinsiy dimorfizmi ko'rinishining kuchsiz darajasi aniqlangan. Ko'krak qafasi aylanasi o'lchamlarida erlar ayollarga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan dimorf farqining o'rtacha darajasi kuzatiladi [50; 5-b]. Tananing mushak va suyak massasi ko'rsatkichlarida jinsiy dimorfizmning yuqori darajsi yaqqol namoyon bo'lgan.

Yadro va disk uloqtiruvchilarda yog' massasining absolyut ko'rsatkichlarida jinsiy farqlar deyarli mavjud emasligi xarakterli, buni o'z ta'siri ostida suyak to'qimalarini gipertrofiyasi, mushak massasini ortish va skeletni kuchayishiga olib keladigan maxsus (ixtisoslashgan) mashg'ulotlarga va musobaqa ta'sirlariga moslashishi (adaptatsiya) bilan tushuntirish mumkin.

Bir qator mualliflar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, yengil atletika turlarini rivojlanirishning zamonaviy bosqichida Rossiyada mahalliy uloqtiruvchilarning uloqtirish nazariyasi va uslubiyotini prinsipial masalalarini hal qilinishi zarurati tobora keskin sezilib bormoqda, chunki eng nufuzli Xalqaro musobaqlarda sport-texnik mahoratni oshirilishini amalga oshirishda negativ tendensiya kuzatilmoqda

O'quv mashg'ulot jarayonida bolalarga harakat amallarini bajarishni o'rgatishning ikki yo'li mavjud:

– harakatlarni maqsadga muvofiq holda bajarish yo'llarini mustaqil ravishda topish;

– mashqlarning asosiy tarkibli tomonlaridan boshlab uning mukammal darajasigacha bo'lgan harakatlarni o'rganish.

Disk uloqtirishbilan bog'liq bo'lgan maxsus va asosiy mashqlarni qo'llash orqali murabbiy-o'qituvchi bolalarni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga undaydi. 9–11 yoshli shug'ullanuvchilar disk uloqtirish mashqlari oldidan vujudga keladigan vaziyatga xos xavotirlanish hissini shundagina oson yengib o'ta oladi.

Harakatlanish amallarini egallash va, xususan, disk uloqtirishga bolalarni o'rgatish ularni dastlabki harakat elementlari bilan tanishtirishdan boshlanadi 8–9 yoshdan boshlab bolalarni disk uloqtirishga o'rgatish mumkin. [10; 23–26-b., 29; 52–59-b., 36; 208-b., 39; 22–24-b., 46; 120-b].

Abdullayev M.J., Olimov M.S., To'xtaboyevlarning N.T ta'kidlashlaricha, disk uloqtirishga o'rgatishda 10–12 yoshdagи shug'ullanuvchilar oldiga quyidagi aniq, muayyan vazifalar qo'yiladi.

Hozirgi paytda yengil atletika turlari sport texnikasi nafaqat tashqi hodisalar bilan, balki ichki mazmun bilan belgilanuvchi harakatlar tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda [12; 22-b].

Shu yoshdagи shug'ullanuvchilarni disk uloqtirish texnikasi elementlariga o'rgatish, Balsevich V.K fikriga ko'ra, maxsus va umumrivojlaniruvchi mashqlarni qo'llash orqali olib boriladi.

Bu jarayon umumiyl qabul qilingan an'anaviy uslublardan farq qilmasdan, yaxlit, bir butun va konstruktiv usullarning uyg'unligi asosida olib boriladi [9; 128-b]. Disk uloqtirishning asosiy elementlarini o'rgatish zarurligi haqidagi mualliflar fikriga qaramasdan, yaxlit, bir butun mashqlarni bo'laklarga bo'lib disk uloqtirishga o'rgatishning yaxlit-konstruktiv usulidan dastlabki mashg'ulotlardayoq foydalanish mumkin [64; 21-b].

Shug'ullanuvchilarning diqqat-e'tibori bu harakat amallarining to'g'ri bajarilishiga qaratiladi.

Shug'ullanuvchilar tomonidan maxsus mashqlar o'zlashtirilib olingandan keyingina disk uloqtirish mashqlariga o'rgatish zarur, aylanish tezligi uncha yuqori bo'lмаган holatda bajariladi.

V.A. Bulkin, YE.V Saburovlar fikriga ko'ra aylanish tezligini harakat amallarining o'zlashtirilganlik darajasiga qarab bir maromda oshirib borishni tavsiya qiladi. N.G.Ozolin, YU.G.Travinlar fikriga ko'ra harakat amallariga o'rgatishda turli mo'ljal-ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Mo'ljal-ko'rsatkich sifatida tennis koptogi, biror bir korobka, gimnastika skameykasi, to'ldirma to'plar, fishkalar va boshqalar qo'llanilishi mumkin.

Mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, bunday harakatlarni cheklovchi va boshqaruvchi me'yor-ko'rsatkichlardan foydalanish ko'rgazmalilikning bir ko'rinishi bo'lib hisoblanadi [78; 164-b., 88; 79-b.]

Disk uloqtirish mashqlarining to'g'ri bajarilishi boshlang'ich tayyorgarlik guruhi shug'ullanuvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi. Bunday holat harakatlarning bajarilishi yuzasidan kuzatish va nazorat qilishni qiyinlashtiradi [84; 219-b.]

Mashqlarni o'rgatishda qo'llaniladigan yaxlit va qismlarga bo'lib o'rgatish uslublari birday ahamiyatga ega bo'lib, yaxlit-konstruktiv va qismlangan-konstruktiv mashqlar sxemasi sifatida foydalanishi mumkin. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhida yengil atletika sport turi bilan shug'ullanuvchi o'g'il va qiz bolalarga disk uloqtirish mashqlarini tavsiya etganda disk uloqtirish aylanasi kengligi e'tiborga olish maqsadga muvofiq [80; 270-b.]

Bir qator xorijlik olimlar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi bolalar bilan birdaniga disk uloqtirish mashqlariga o'tmasdan, faqat maxsus mashqlar orqali shug'ullanishni tashkil etish kerak ekanligini tavsiya qilishgan [29; 8-9-b., 44; 29-b., 45; 60-63-b.]

Shug'ullanuvchilar dastlab umumiy va maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar. Mashg'ulot jarayonini tashkil qilishning asosiy tamoyillari bilan belgilangan o'rgatishning izchil tartibi disk uloqtirishning

boshqa sohalari uchun ham xosdir. O'rgatish jarayonida qo'llanilayotgan bir qator mashqlar ayrim mutaxassislar tomonidan tortishuvlarga ham olib kelgan [50; 132-b., 63; 167-b.]

Asosiy jismoniy sifatlarni sport ixtisosligiga qarab kompleks rivojlantirishga turli vositalardan foydalanish orqali erishish mumkin, chunki o'rgatish jarayoniga kiritilgan keng ko'lamdag'i turli-tuman mashqlar va ularni bajarish mushaklar guruhi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni harakatga soladi [66; 99-106-b., 72; 240-b., 76; 77-b., 78; 121-122-b.]

Stolyar L.M tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 10-12 yoshli shug'ullanuvchilar bilan turgan joyda tayangan holda bajariladigan maxsus mashqlarni qo'llash ulardagi samaradorlikning o'sishida yaxshi natija beradi. Bu harakatlar tuzilishi bo'yicha asosiy mashqlardan farq qilsada, muallif ushbu tajribaga asoslangan maxsus mashqlarni murakkab harakatlarni shakllantirish va o'rgatish borasida qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Asosiy harakatlar texnikasini o'rgatishdan 1,5-2 oy oldin mashg'ulotlarning tayyorgarlik qismiga maxsus mashqlarni tatbiq etish orqali shug'ullanuvchilarda zarur bo'lgan harakat sifatlarini rivojlantirish zarurati haqida alohida ta'kidlab o'tadi. Muallif birgina mashg'ulot davomida yengil atletikaning turli texnik usullari: sakrash, uloqtirish, disk uloqtirish mashqlaridan uyg'unlikda foydalanishni tavsiya etadi [78; 47-b., 81; 584-b., 83; 10-13-b.]

Yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish o'quv-mashg'ulotlarning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon yosh sportchilar organizmini har tomonlama rivojlantirish, sog'lig'ini mustahkamlash, tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funksional baza yaratishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi.

Zamonaviy sport sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga yuksak talablar qo'yibgina qolmay, xozirgi vaqtida sport yutuqlarning jadallik bilan o'sib borishi har doim sportchidan jismoniy

qobiliyatlarni rivojlantirishning yangi darajasini taqazo etadi [132; 22–24– b]. Turli jismoniy sifatlarni rivojlantirishning ijobiy uzviyiligi asosan harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarini hamohang rivojlantirishni nazarda tutgan, bunga esa mashg'ulotlarni to'g'ri taqsimlash orqali tashkil qilishga erishiladi [27; 159–b., 68; 544–b.].

Bizning tadqiqotimizga doir maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish quyidagilarni ko'rsatmoqda: jismoniy tarbiya vositalari orasida yengil atletikaning texnik turlari mashqlari muhim o'rinni tutadi. Bu borada sog'lomlashtiruvchi vazifani bajaruvchi yengil atletikaning disk uloqtirish mashqlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Disk uloqtirish shug'ullanuvchilardan ko'plab turli harakat, ko'nikma va malakalarni talab etadi. Bu mashqlarning qo'llanilishi uning ayrim muhim elementlariga o'rgatishning o'ziga xos yondashuvini shakllantirish istiqbolini yaratadi.

Disk uloqtirish mashqlarining amaliyotda qo'llanilishi o'quv-mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi. Bunday tarzda jismoniy sifatlarni tarbiyalash bilan birgalikda harakat malakalarini egallash imkonini ham yaratadi [76; 101–b., 82; 23–b.].

Katta hajmdagi mashqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'rgatish uslubiyatini birmuncha osonlashtiradi.

Bu shug'ullanuvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Disk uloqtirish mashqlari shug'ullanuvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashda ham samarali vositalardan biri sanaladi.

Mazkur muammo yuzasidan asosiy manba hisoblangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarning tahlili disk uloqtirish mashqini qo'llash turli yoshdagi shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi uchun eng samarali vosita hisoblanishini ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarda disk uloqtirish mashqlarini qo'llash prinsipial imkoniyat ekanligi aniqlangan. Biroq hozirgacha Disk uloqtiruvchilarning harakatlanish parametrlarini biomexanik tahlili vosita, uslub va shakllari tanlanib, haligacha to'la ravishda asoslab

berilmagan. Shug'ullanuvchilarda disk uloqtirish elementlarini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligi o'rganilmagan.

Shunday qilib, disk uloqtiruvchilarning harakatlanish parametrlarini biomexanik tahlili disk uloqtirish mashqlaridan foydalanish disk uloqtirish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilar ta'lim-tarbiyasining muhim vazifalarini kompleks holda hal etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

### 1.2 – jadval

**Jahondagi eng kuchli uloqtiruvchilarning razryad normativlarini bajargan yoshi (V.B.Zelechenok, V.G.Nikitushkin, V.P.Guba, 2000) bo'yicha**

Nayza uloqtirish Disk uloqtirish	Yadro Yadro uloqtirish	Uloqtirish turlari	Sport razryadi									
			III		II		I		SUN		SU	
			Yosh, yil	Natijalari (m)	Yosh, yil	Natijalari (m)	Yosh, yil	Natijalari (m)	Yosh, yil	Natijalar (m)	Yosh, yil	Natijalari (m)
13	11,2	16,5	13,4	17,5	15,4	18,9	17,4	20,6	18,9	23,3	21	
14	36,4	16,3	43,1	17,1	48,3	18	52,9	21,7	60,5	23,1	63,7	
14,2	43,8	15,1	52,8	16,3	61	17,6	68,7	18,8	72,8	21,9	81,6	

**1.3 – jadval**  
**Turli sport toifadagi uloqtiruvchilarning tana uzunligi va qo'l harakat kengligi (razmax)(A.D.Kamarova) bo'yicha**

Sport razryadi	YOshi	Tana uzunligi	Qo'l uzunligi
Boshlovchilar	12–13	154,6	160,5
O'smirlar razryadi	13–14	157,0	165,0
III–razryad	14–15	161,5	172,0
II–razryad	15–16	167,5	181,5
I–razryad	17–19	170,5	186,5
SUN	19–20	174,5	189,0
SU	21–yoshdan yuqori	175,0	190,0
XTSU	24–yoshdan yuqori		193,0

**1.4 – jadval**  
**Turli sport toifalariga mansub disk uloqtiruvchilarning statik kuch ko'rsatgichlari (T.N.Press) ko'rsatgichlari bo'yicha**

Sport razryadi	Yosh yil	Tana egilish (kg)	Tos–son egilish (kg)	Yelka egilish kg	Oyoq–kaftlarinin g egilishi kg
Boshlang'ich razryad	12–13	93±3,99	92,0±3,12	27,5±0,08	88,5±2,44
Yoshlar razryadi	13–14	98,0±1,02	95,5±3,23	28,3±0,83	93,5±2,36
III–razryad	14–15	13,0±4,81	102,0±3,46	32,0±1,02	103,0±4,06
II–razryad	15–16	144,5±4,19	110,0±3,90	38,5±1,10	126,0±4,40
I–razryad	17–19	150,0±4,80	121,5±3,49	37,5±1,22	145,5±4,11
SUN	19–20	153,5±4,69	124,0±4,03	40,0±1,30	150,0±4,63

Sport razryadi	Yosh yil	Tana egilish (kg)	Tos–son egilish (kg)	Yelka egilish kg	Oyoq–kaftlarinin g egilishi kg
SU	21–yoshdan yuqori	161,0±5,08	143,0±4,21	43,0±1,56	159,0±7,92
XTSU	24–yoshdan yuqori	175,0±6,92	169,0±6,92	50,5±1,99	180,5±8,84

**1.5 – jadval**  
**13–20 yoshli uloqtiruvchilarning marfologik ko'rsatgichlari**

Antropometrik ko'rsatgichlari	Jinsi	Yosh ko'rsatgichlari		
		13–15	16–17	18–20
Tana uzunligi sm	E	180–190	185–195	185–200
	A	170–180	170–185	174–190
Tana og'irligi kg	E	95–100	100–115	105–120
	A	75–85	80–90	80–90
Qo'l oralig'i (razmax ruk)	E	195–210	215–260	205–215
	A	180–190	185–195	190–200

**§1.3. Disk uloqtirish turlariga ixtisoslashgan talaba–sportchilar shug'ullanuvchilarida disk uloqtirish mashq elementlarining qo'llanilishi**

Ta'lim tizimi samaradorligiga erishish uchun sprtchi–talabalarining faoliyatining turli tomonlaridan keng foydalanish lozim. O'z navbatida, ta'lim–tarbiyaning mazmuni ham xilma–xil va har tomonlama bo'lishi darkor va boshqa ko'pgina mutaxassislarining ilmiy tadqiqotlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning har tomonlama kamol topishlarida quyidagi faoliyat sohalarining o'rni alohida ko'rsatilgan:

- aqliy faoliyat;
- jismoniy mehnat;
- xilma-xil o'yinlar;
- sport bilan shug'ullanish;
- san'at bilan mashg'ul bo'lish;
- tashkiliy-ommayiv tadbirdorda ishtirok etish.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan mavzuga doir maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, disk uloqtirish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilar uchun yaqqol bir tomonlama yondashish umumkasbiy fanlari asoslarini o'zlashtirishga yuqoriroq darajada e'tibor qaratilishga va faoliyatning boshqa turlariga kam o'rinn ajratilishiga olib kelgan [73; 48-b].

Olimlar tomonidan talabalarga tayyor holatda berilayotgan barcha o'quv materialarning o'zlashtirilishi bir tomonlama xususiyatga ega Oliy ta'limda beriladigan yuklamalar statistik charchash, zo'riqish va harakat faolligining susayishi, sportchi organizmi ish qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Bu holat nafaqat bizning mamlakatimizda, balki bir qator xorijiy davlatlarda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda [30; 294-b., 83; 102-104-b., 84; 93-104-b., 98; 69-72-b]. Asosiy qiyinchilik bilimlarni o'zlashtirishda vujudga keladi: barcha tarbiyaviy vazifalarni bajaruvchi mustahkam va minimal bilimlarni egallash, kelgusida jismoniy tarbiya va sportga oid maxsus bilimlarni to'ldirib borish uchun yetarli bo'lishi va o'z navbatida, ilmiy hamda amaliy tafakkurni shakllantirishi lozim, biroq bu narsa shug'ullanuvchilar organizmi va asab tizimining haddan tashqari zo'riqishi va charchashiga olib kelmasligi kerak Jismoniy tarbiya va sportda ham ta'lim mazmunini tashkil qilishda ilmiylik, bajara olish tamoyillari muhim hisoblanadi.

L.V.Smurigina, K.T. Shakirjanovlar kabi mutaxassislarining fikricha, shug'ullanuvchilarining ijodiy faoliyatidagi tajribalari, boshlang'ich tayyorgarlik guruhi mashg'ulotlarida sohaga oid bilim,

ko'nikma va malakalar tizimini aniqlash muammolari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda shug'ullanuvchilarining bilim va malakalariga katta e'tibor berilishiga qaramay, didaktikada bilish tasniflari yetaricha ishlab chiqilmagan va yoritilmagan. Ushbu tasniflanih o'quv fanlari mohiyatining ilmiy asoslarini tanlashda ham muhim hisoblanadiki, unda ko'nikmalar faoliyat turi sifatida ko'tib chiqilishi kerak.

Shunda quyidagi muhim ahamiyatga ega qobiliyat va qiziqishlar ko'rsatkichlari aniqlangan: u yoki bu o'quv predmetini (fan) muvaffaqiyatlari egallashga moyillik;

- fe'l-atvor jihatlari, ichki uyg'onish omillari (ehtiyoj, his-tuyg'u, joylashuv);

- pedagogik ta'sirlarni qabul qilish darajasi .

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari tomonidan qayta ko'rib chiqilgan, shu bilan birga bunday konstruksiyalarning asosiy negizi bir xil. Bu esa turli mamlakat va mintaqalardagi bolalar-o'smirlar sport maktablari shug'ullanuvchilarining jismoniy tarbiya va sport borasidagi faoliyati asosini tashkil etish masalalarini yakdilligiga sabab bo'ladi. Ba'zi manbalarda bu masalalarga aniq ifodalar berilgan.

Butun jismoniy tarbiya va sport tizimini, jumladan, bolalar-o'smirlar sport maktabining yengil atletika turlari bo'yicha o'quv fasturlarini ishlab chiqishda foydalilanayotgan yondashuvlarni aniqlash maqsadida kuzatuvlar, tahlillar, muhokamalar, bir qator lavlatlardagi kabi, bizning mamlakatimizda ham jismoniy tarbiya fasturlari muhokamasi o'tkazilgan [75; 152-b].

Jahonning turli mamlakatlarida jismoniy tarbiya tizimining yillishi bir - biridan qisman farq qilishi mumkinligi aniqlangan [61; 48-b., 65; 137-b., 67; 60-b., 90; 149-b]. Shug'ullanuvchilar

jismoniy tarbiyasining asosini sinfda dars shakli tashkil qilsada, sinfdan tashqari tadbirlar va mashg'ulotlar bilan to'ldirib boriladi. Maktabdan tashqari ta'limning muhim bo'g'ini hisoblangan BO'SMDa olib boriladigan aniq maqsadli, izchil tayyorgarliklarning o'rni beqiyosdir Eng avvalo, jismoniy tarbiya vositalarining muhim shakli jismoniy mashqlardir. Chunki ular jismoniy sifatlarni rivojlantirishda, asosiy harakat amallarini o'zlashtirish va ko'nikmalarni egallahsha katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya tizimini qayta ko'rib chiqishda qo'llanilayotgan yondashuvlar shug'ullanuvchilarda jismoniy tarbiyaning yangi konsepsiya talablarini hisobga olish kerakligiga ehtiyoj sezmoqda mashg'ulotlarning maqsadi, asosan, shug'ullanuvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat qobiliyatlarini takomillashtirish, shug'ullanuvchilar salomatligini mustahkamlash va uzoq umr ko'rishga erishishdan iboratdir.

Tadqiqotlarida shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarga ishtirok etishga xohish-istiklarining susayganligi, o'quv-tarbiyaviy jarayonining eskirgan tizimi va shug'ullanuvchilar uchun kundalik hayotida va turmushida real zaruriyatga ega bo'ladigan mashg'ulot vositalarining to'g'ri tanlanmaganligi bilan tushuntirish mumkin.

Bola organizmidagi tayanch - harakat a'zolarining mushak tolalari bir maromda rivojlanmaydi. Yirik mushak tolalari tezroq shakllansada, biroq uzoq muddat kerak bo'ladi, sostrog'i, ya'ni (submaksimal tartibda qisqarish va bo'shashishni yetarli darajada bajara olmaydigan) mayin tolalar esa qisqa vaqtida tez rivojlanadi. Bunda ushbu yoshdagagi shug'ullanuvchilar kichik harakatlarni ishonchszilik bilan bajaradilar (masalan, qo'l bilan bajariladigan mashqlar, mo'ljal olish, aniqlikka xos bo'lgan topshiriqlarni yaxshi o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va ko'rish mumkin bo'ladi).

Ushbu yosh davrida tayanish, osilib turish, sakragandan so'ng chuqurga qo'nish kabi mashqlar yuklamalarini chegaralash lozim [85; 31-b., 96; 20-b.].

Biroq bu kichik yoshdagagi bolalar va o'smirlar tanlangan sport turi bilan shug'ullanuvchilarning yurak mushaklari hajm jihatidan uneha katta bo'lmasada kattalarga nisbatan o'z vazifalari doirasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Bogdanovning G.P fikriga ko'ra, tirmashish, emaklash, yurish, yugurish, oddiy sakrashlar, g'ovlarda bajariladigan mashqlar elementlarini bajarishda gavdaning turli holdagi muvozanatlarini saqlash, fazoda mo'ljal olish kabi mashqlar muvafaqqiyatli takomillashadi. Biroq bu yoshdagagi bolalar skeletining shiddatli shakllanishi mashg'ulotlar jarayonida umurtqaga og'ir zarbali yudamalar, shuningdek, oyoqlarga kuch tushishiga yo'l qo'ymaslik surur.

To'g'ri qaddi-qomatni tarbiyalash uchun maxsus mashqlardan foydalanish kerak. Bu yoshdagagi bolalarda diqqat sust ravishda rivojlangan bo'ladi, mashg'ulotlar jarayoniga doimiy ravishda qiziqish o'zgarib turadi [18; 5-b.].

Ozolin N.G., Markov D.L fikriga ko'ra, rivojlanayotgan sifatlarga albatta jadal, shiddatli yuklamalarni qo'llash mumkin emas, ular, muallif ta'kidiga ko'ra, kunlik yuklamalar ta'siri ostida ham to'liq va yotarlicha shakllanadi.

Jismoniy sifatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri shakllanishisiz mavjud bo'la olmaydi va ularni shartli ravishdagina shakllanish mumkin, xolos. Yuqori ko'rsatkichlarga erishishda mualliflar tiborni kuch va tezkorlikning uyg'unligiga qaratadilar. Kuch katta jadagi tezlik sifatini belgilaydi, deb hisoblaydilar.

Organizmni jismonan kuchli qilib shakllantirishda tezkor-kuch karakteriga ega mashqlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Tezkor-ko'nikchasi doir mashqlar oyoq, qorin pressi mushaklarini takomillashtiradi va ularning mukammal bo'lishiga imkon beradi. Ushbu mashqlar tayanch-harakat apparatini mustahkamlashga joyib ta'sir ko'rsatadi.

Tezkor-kuch mashqlari fazodagi harakatlarni va mushak kuchi darajasini baholash qobiliyatlarining mukammal bo'lishi uchun qo'llaniladi. Shug'ullanuvchilarda turli harakat sifatlarini rivojlantirish metodikasi ko'plab ishlarda yoritilgan. Harakatlar uyg'unligini va egiluvchanlikni rivojlantirishni bolalarda asosan 12 yoshgacha bo'lgan davrda yaxshi o'zlashtirib olishga erishish mumkin. Bu bilan ushbu yoshdan keyin mazkur harakat sifatlarini rivojlantirib bo'lmaydi degani emas.

O'smir yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etish uchun mashqlarning 10 ta muhim turi tavsiya qilinadi:

- mashg'ulotlarda bolalar gavdasidagi harakat holatlarini o'zgartirish orqali oyoqni aniq fiksatsiya qilish bilan bog'liq gimnastika mashqlari;
- gavda muvozanatini saqlash bilan bog'liq mashqlar;
- turli yakkakurash mashqlari;
- predmetlar bilan mashqlar;
- akrobatika mashqlari;
- koptok bilan harakatlanish mashqlari (predmetlarni aylanib o'tish, koptok uzatish);
- attraksion-o'yinlar;
- guruqli o'yin-mashqlari;
- sport o'yinlaridan foydalanish.

Harakatlar uyg'unligini rivojlantirishga ularni murakkablashtirish, anqlik va tezlik uchun bajarishga doir talablarni kuchaytirish orqali erishish mumkin. Bir xil murakkab yo'nalishda harakatlardan turli yo'nalishdagi harakatlar sari borish tavsiya etiladi, bu qo'l, oyoq, gavda bosh harakatlarining turli uyg'unliq orqali ham amalga oshiriladi.

D.D.Safarova bergan ma'lumotlarga ko'ra, 9-11 yosh bolalarda bo'g'imlardagi harakatchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Maxsus mashqlarni bajarishni son, yelbo'g'imlari harakatchanligi uchun 30-40 tagacha, tos-

bo'g'imlari uchun 20-40 tagacha, umurtqa pog'onasi bo'g'imlari uchun 30-40 tagacha yetkazish tavsiya etiladi. Muallif fikriga ko'ra, 40% faol xususiyatga, 40% passiv va 20% statistik xususiyatga ega bo'lgan kompleks mashqlar bu yoshdagi bolalar uchun eng qulay va samarali sanaladi.

T.S.Usmonxo'jayev chaqqonlikni tarbiyalashda eng muhim yo'nalishlardan biri turli-xil yangi harakat, ko'nikma va malakalarini egallashdan iborat ekanligini ko'rsatgan. Bu harakat va malakalar bolalardagi mahorat zahirasini yanada boyitishga olib keladi, harakat analizatorining funksional imkoniyatlarida o'z ifodasini topadi.

Muallifning ta'kidlashicha, shug'ullanuvchilarda chaqqonlikni rivojlantirishning eng yaxshi vositalaridan biri bu sport va harakatli o'yinlar, buyumlar bilan bajariladigan mashqlar, muvozanatni saqlashga doir mashqlar, estafetali o'yinlar, gimnastika va akrobatika mashqlari hisoblanadi.

Qator mualliflar A.I. Lisitsina, T.S. Usmonxo'jayevlar, S.S. Tajibayevlarning fikriga ko'ra harakatli o'yinlar hamda o'yin shaklida tashkillashtiriladigan o'quv-mashg'ulotlar yosh sportchilarning sportga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda, shug'ullanuvchilarning emotsional holatini yaxshilashda eng samarali vosita va usul ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ammo harakatli o'yinlarning sportga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishga ta'siri pedagogik tajribada asoslab berilmagan.

Shu bilan birgalikda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi yosh sportchilarning sportga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni saralab, samaradorligini pedagogik tajribada asoslash, trenerlar amaliyotiga tavsiya va takliflar berish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va mashg'ulot jarayonida samarador vosita sifatida qo'llanilmoqda. L.V Volkov ta'kidlashicha, harakatli o'yinlarni turli

yoshdagagi yosh sportchilar bilan ishlashda qo'llash mumkin, lekin ular faqat tayyorgarlikning boshlang'ich davrida kichik maktab yoshida eng yuqori natija beradi.

Muallifning fikriga ko'ra, amaliyat harakatli o'yinlarni mashg'ulotlar tizimida jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun qo'llash kerakligi xaqida guvohlik beradi [46; 62-b]. Zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatida shaxsning jismoniy tarbiyasini shakllantirish uslublarining bir nechta klassifikasiyasi mavjud. L.P Matveyev fikricha, o'yin uslubi tushunchasi, o'yinning uslubiy o'ziga xosliklarini, ya'ni boshqa tarbiya uslublari bilan uslubiy munosabatlarda ajralib turuvchi jihatlarini (shug'ullanuvchilar faoliyatlarini tashkillashtirish xususiyatlariga, uni boshqarish va boshqa mavjud pedagogik belgilarga ko'ra,) aks ettiradi.

O'yin uslubi ushbu uslub xususiyatlariga mos ravishda tashkillashtirilganda har qanday jismoniy mashq asosida qo'llanilishi mumkin. Muallif tashkillashtirish syujeti, maqsadga erishish usullarining xilma-xilligi va qoidaga ko'ra, kompleks faoliyat xususiyati, shug'ullanuvchilar harakatlanishida erkinlikning yuqoriligi, ularning tashabbuskorligi, topqirligi, chaqqonligi, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda modellashtirish, yuqori emotsiyonallik, faoliyatni ehtimoliy dasturlashtirishni o'yin uslubining o'ziga xos jihatlari deb hisoblaydi.

O'yin uslubi, muallifning fikricha, harakatlar tarkibi va ularning shug'ullanuvchilarga ta'sir ko'rsatish darajasini avvaldan qat'iy mo'ljallashga yo'l qo'ymaydi. O'yin maqsadiga yetishning turli usullari, o'yin vaziyatining doimiy o'zgarib turishi, dinamikligi va yuqori emotsiyonallik ta'siri bularning hammasi mashqlar mazmunini qattiq dasturlashtirish hamda yuklamani kattaligi va yo'nalishiga ko'ra, aniq nazorat qilish imkonini mustasno etadi.

Adabiyotlarning nazariy tahlili yakunida quyidagilarni xulosalash mumkin.

1. Shug'ullanuvchining sportdagi ta'lim mazmunini ilmiy asoslash muammosi yetarli darajada ishlab chiqilishiga qaramay, disk uloqtiruvchilarning harakatlanish parametrlarini biomexanik tahlilida maxsus mashqlarida ko'plab noaniqliklar mavjud bo'lib qolmoqda.

2. Shug'ullanuvchilarning disk uloqtirish mashg'ulotlari mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yondashuvlarni hisobga olish asosida amalga oshirilmagan, bu shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan faol qiziqishlarini izchil shakllantirishni qilyinlashtirmoqda.

3. Yengil atletikaning disk uloqtirish turiga o'rgatishda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga bo'lgan yondashuvni ta'minlovchi texnologiyalar nashr etilgan mazkur adabiyotlarda to'la yoritilmagan.

Yuqorida ta'kidlangan fikr va xulosalar jismoniy tarbiya va sport, shu jumladan yengil atletikaning disk uloqtirishga o'rgatish mashqlari mazmunini takomillashtirish va olingan ma'lumotlarni jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv-pedagogik jarayonda shug'ullanuvchilarning shaxsiy-maqsadli ta'lim olishiga tatbiq etishda maxsus tadqiqotlarni o'tkazish zaruriyatini keltirib chigardadi.

## **II Bob. Disk uloqtiruvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini sport natijalariga ta'siri.**

### **§ 2.1. Disk uloqtiruvchi – sportchi talabalarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari**


Mavjud manbalar materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadi, yuqori malakali disk uloqtiruvchilarni tayyorlashda mashg'ulotlar jarayonida biomexanik parametrlarni o'lchash va ularni qollash orqali maxsus kuch sifatlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni ilmiy asoslangan holda tashkil etish bugungi kunda amaliyat talablari darajasida yo'lda qo'yilmagan. Shu sababli boshqa sport turlarida olib borilgan tadqiqot natijalarga tayangan holda ilmiy–uslubiy jihatdan asoslangan yangi usullarni mashg'ulotga kiritish lozim

Disk uloqtiruvchi malakali sportchilar tayyorgarligi jarayonida uchrayotgan koordinatsion qobiliyatlarni va texnik tayyorgarlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni tadqiq etish yuzasidan pedagogik kuzatish va ilg'or tajribali mutaxassislar, tajribali murabbiylar va yuqori mahoratlari sportchilar o'rtaida anketa so'rovnomasi o'tkaziladi va ular tomonidan savollarga javob olindi.

Sohaning yetakchi mutaxassislari, tajribali murabbiylar va yuqori mahoratlari sportchilardan tashkil topgan respondentlar guruhi tomonidan 71 nafaridan disk uloqtiruvchilarni tayyorlash jarayonining xususiyatlari, muammolarini va istiqbollarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar quydagicha ifodalandi.

**3.1– diagramma.**

**Anketa so'rvnosami natijalari (%) (n=71)**



**Disk uloqtirishda maxsus kuch tayyorgarligi qanchalik muhim ahamiyatga ega deb hisoblaysiz? (1–savol)?**—degan savolga eng muhimidan boshlab pasayib borishi bo'yicha joylashtiring” degan savolimizga 20% trenir: “unchalik muhim emas”, 80% trener “juda muhim”, qolgan trener bu savolga ba'zan kerak,ba'zan kerak emas deb javob berishdi.

Biz tomonimizdan o'rgangan savolga mutaxassisilar nafaqat disk uloqtirishga bu tayyorgarlik barcha uloqtirish turlarida muhim ahamiyat kasb etadi deb o'z fiklarini aytib o'tishgan. Mutaxassislarning fikriga asoslanib, disk uloqtirish turlarida maxsus kuch tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligiga xulasa qildik.

**Disk uloqtiruvchi sportchilarning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qaysi davr eng qulay va samarali davr (2-savol)?**—deb bergen savolimizga

respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: buning uchun eng qulay davr 12–15 yosh, 25,36 foizi (18 kishi) 16–18 yosh, 14,08 foizi (10 kishi) 23–26 yosh va 38,03 foizi (24 kishi) 19–22 yosh deb e'tirof etishganlar.

**Disk uloqtiruvchi sportchilarning sport faoliyatida biomexanika sohasidagi bilim va ko'nikmalar qay darajada ahamiyatga ega deb hisoblaysiz?** (3-savol)? deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: Respondentlarning, afsuski, faqatgina 42,25 foizi (30 kishi) foydalanishini, 30,89% foizi kerak emas deb hisoblashini va 26,76% foizi (19 kishi) bilmayman degan javobni bildirganlar.

**"Disk uloqtiruvchi sportchilarning sport faoliyatida axborot–kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish darajasi.** (4-savol)?—deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: Bunda jami respondentlarning 47,85 foizi (34 kishi) disk uloqtiruvchi sportchilarning sport faoliyatida axborot–kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish darajasi yetarli emas, 25,36 foizi (18 kishi) javob berishga qiynalaman, deyarli ¾ qismi salbiy javob va qolganlari ijobjiy degan fikrlarni bildirganlar. Ijobjiy fikrni bildirganlar orasida ham 14,08 foizi "amaliy tavsiyalari kam" degan e'tiroz bildirganini inobatga olsak, faqatgina 12,68 foizi (9 kishi) zamonaviy axborot–kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni yetarli darajada deb baholagan,

**O'quv mashg'ulot jarayyoninig qaysi qismida maxsus kuch tayyorgarligini rivojlantirish uchun qanday uslublar qo'llanilishi kerak deb hisoblaysiz?** (5-savol)?—deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: Respondentlarning aksariyat ko'pchiligi, ya'ni 70,42% foizi disk uloqtiruvchi sportchilarning maxsus–kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda eng samarali usul sifatida takroriy, 5,49% foizi

musobaqa va 14,08% foizi qat'iy tartiblashtirilgan usulni e'tirof etishganlar.

**Xozirgi vaqtda maxsus kuch tayrgarligin mexanik qomuniyatga tayangan xolda rivojlantirishga oid ilmiy–metodik adabiyotlar yetarli deb hisoblaysizmi** (6-savol)?—deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: Disk uloqtiruvchi sportchilarning maxsus – kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy–uslubiy adabiyotlarning 23,94% nafar respondent yetarli, 39 % yetarli emas deb hisoblasa, 36,6% nafari amaliy tavsiyalari kam deb fikr bildirganlar.

**Disk uloqtiruvchi sportchilarning natijaviyligi sportchining antropometrik parametrlariga qay darajada bog'liq deb bilasiz** (7-savol)?—deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: respondentlarning 43,66% foizi muxim axamyatga ega, 25,36% foizi natijaga antropometrik ko'rsatgich ta'sir yo'q, 30,54% foizi bilmadim deb baholaganlar.

**Disk uloqtiruvchi sportchi talabalarni koordinatsion qobiliyat rivojlantrish muxim ahamitga egami** (8-savol)?—deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: 51,6% "xa", 19,3% trener "yo'q" 29,1% trener "bilmayman" deb javob berishgan. Bundan tashqari bu savolimizga trenerlar koordinatsion qobiliyatlar uloqtirishda ilmiy uslubiy metodikalar kam deb fikr bildirib o'tishgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib ishimizning hozirgi kunda dolzarb ekanligini belgilab beradi.

**Disk uloqtirshda snaryadning aerodinamik xossalari inobatga olish zarurmi** (9-savol)?— deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: 39,4% foiz "xa", 21,2% foiz muxim emas, 39,4 % muxim emas. degan javob tanlashgan.

**Maxsus kuch tayrgarligi hamda koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanganligini qanday aniqlash mumkin** (10-savol)?— deb bergan savolimizga respondentlar fikri quyidagicha ifodalanadi: 35,3% diskni uloqtirish masofalari, 32,3%

"muvazanatni saqlay bilishiga qarab" 32.3% foizi sportchilarning individul xususyatidan kelib mashqlangligidan degan javoblarni berishgan.

Kuchlanish – kuchning snaryadga ta'sir ko'rsatish ko'rsatishida – disk uloqtirishning asosi. Biroq, disk uloqtirishda harakatlanish yo'lida diskka ta'sir ko'rsatadigan maksimal kuch vujudga keltira olishni bilishni o'zi yetarli emas, yana shu yaratilgan kuch bilan diskni harakati davomida optimal radius bo'yicha ta'sir ko'rsatish ko'nikmalariga ham ega bo'lish kerak. Bu foydalanish samaradorligini yaxshilaydi: markazga intiluvchi kuch kamaytiradi va bevosita diskni tezligini ortishiga zamin yaratadigan urinma kuchni oshiradi

Uloqtiruvchi uloqtirish jarayonida diskni, uning optimal harakat yo'lini ta'minlaydigan va diskka eng yaxshi ta'sir ko'rsatiladigan radiuslar bo'yicha harakatlantirishi kerak. Finallada uloqtiruvchining diskka ta'sir ko'rsatish kuchidan foydalanihodigan yaxshilanishi diskning harakatlanish radiusi oshirilganda bo'ladi. Uloqtiruvchi disk tizimiga ikki tayanchli holatlarda eng katta bir tayanchli holatlarda esa eng kamm kuch bilan ta'sir ko'rsatish mumkin. Tayanchsiz holatlarda uloqtiruvchining hech qanday kuchlanishlari disk tezligini ortishigi olib kelmaydi.

Uloqtiruvchi uloqtirish jarayonida diskni, uning optimal harakat yo'lini ta'minlaydigan va diskka eng yaxshi ta'sir ko'rsatiladigan radiuslar bo'yicha harakatlantirishi kerak.

Uloqtirishning butun jarayonida uloqtiruvchi disk tizimiga ham, final kuchlanishda diskni o'ziga (oddiy) tezlik berishda ham tezlikni diskka eng yaxshi uzatilishi shunday holda sodir bo'lishi mumkinki, uloqtiruvchi to'liq jamlangan va bosiq holatda (tos o'qiga nisbatan yelkalar o'qi ortda qolganda) bo'lsa. To'liq jamlanganlik va bosiqlik ,birinchidan, uloqtiruvchining diskka ta'sir ko'rsatish kuchi yo'lini orttirish, ikkinchidan, ushbu ta'sir ko'rsatish kuchini

mushaklarini dastlabki cho'zish hisobiga final tizimini eng yaxshi amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Yukda uloammoni muvafaqiyatli hal qilish uchun yuqori disk uloqtiruvchilarga bir kunda beriladigan turli tizimlarning mashg'ulotning maxsus kuchini hamda biomexanik tizimini tahsil qilish orqali disk uloqtiruvchi sportchlarning tizimini eng yaxshi va ta'sir qilish tavsifini chuqur o'rganish talab qiladi. Masruk masalani yechish turli mashg'ulotlarni almashlab tizimlarning mashqlar tizimini ishlab chiqish va disk uloqtirish bo'yicha tizimini disk uloqtirish sportchilarni tayyorlashda uning foydalanishini oshirishga hamda erishishiga imkon beradi.

### **3.3. Disk uloqtiruvchilarining sport pedagogik mahoratini oshirish mashg'ulotlarida o'quv yordamalarining taqsimlanishi.**

Yukda kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviyatli, jismonan baquvvat va sog'gom qilib qilishda jismoniy tarbiya va sportning ulushi sezilarli tizimlarning o'shlashi. Albatta yengil atletika bo'yicha ishlab chiqilgan fan yengil atletika sport turining tasnifi, yengil atletika jismoniy tarbiya va sport tizimidagi o'rni va ahamiyati, atletika turlarining Jahon, Osiyo va O'zbekistonda rivojlanish tarixi, atletika turlarining texnikasi asoslari, yengil atletika turlari o'rnatishning vositasi, uslubi, tamoyillari, yengil atletika mashg'ulot jarayonining tuzilishi tashkil etish uslublari va pedagogik tamoyillarining nazariy va amaliy ahamiyati, atletika mashg'ulotlari asoslari, yengil atletikaning hozirgi dolzarb muammolari, yengil atletika turlarini xususiyatiga moshaq'ulotlarni rejalashtirish va olib borish, yuklamalarni yurishish, yengil atletika bo'yicha ommaviy tadbir va tashkil etish va o'tkazish, musobaqlarda hakamlik

qilish, yengil atletikada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish kabi vazifalarni ochib berishni nazarda tutadi.

“Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika)” fani umumkasbiy fanlar blogiga kiritilgan bosqich hisoblanib 8 semestr davomida o’qitilib, ushbu soatlar I bosqichda 144 soat, II bosqichda 180 soat, III bosqichda 154 soat va IV bosqichda 270 soatni. Soatlarning umumiy hajmi 4 yil davomida 748 soatni tashkil etadi (2018–2019 yil o’quv rejaga asosan).

“Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika)” o’qitishdan maqsad – talabalarda yengil atletika turlari bo’yicha asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash vosita va uslublari, o’qitish tamoyillarini bilish, mashg’ulot va musobaqalarni tashkil etish va o’tkazish, yengil atletika turlari texnikasi o’rgatish, yengil atletika mashg’ulotlarining nazariy asoslari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Talabalarga yengil atletika sport turining nazariyasi va uslubiyatini, ko’p yillik tayyorgarlikda o’quv mashg’ulotlarini tashkillashtirish va boshqarish tizimi, vosita va uslublarini yengil atletikada saralash bosqichlarining tizimi va tartibi, sportchilarни kompleks nazorat qilish shakllari va uslublari, yuqori malakali sportchilarни tayyorlashda mashg’ulot jarayonini innovatsion boshqarishning texnologiyalarini amaliyatga tadbiq etishni o’rgatish kabi vazifalarni bajaradi.

“Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika)” fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar quydagilarni qilish lozim.

– yengil atletika sport turining tasnifi, yengil atletika turlarining jismoniy tarbiya va sport tizimidagi o’rni va ahamiyati yengil atletikaning rivojlanish tarixi va bosqichlari, yengil atletika turlarining texnika asoslari, engil atletika turlari texnikasiga o’rgatishning vositalari, uslublari, tamoyillari, yengil atletika bo’yicha mashg’ulot jarayonining tuzilishi, mashg’ulot tamoyillarining amaliy asoslarini, ko’p yillik sport tayyorgarlikni

davrlari, bosqichlari hamda ularning maqsad va vazifalarini, mashg’ulot jarayonini innovatsion texnologiyada boshqarish asoslarini bilishiga;

– yengil atletika mashg’ulot jarayonini tashkil etish va tahlili, yengil atletika mashg’ulot jarayonining pedagogik tahlili va texnometrajini olib borishni, yengil atletika turlarining texnikasini tahlishga o’rgatish, yengil atletika turlariga iqtidorli sportchilarni saralash, musobaqalarni tashkil etish va turli lavozimlarda hakamlik tahlilari bilim ko’nikma malakalarga ega bo’lishi lozim;

– yengil atletika darsi va mashg’ulotlar jarayonini zamonaviy tahlil asosida tashkil etish va o’tkazish; shug’ullanuvchilarni funksional imkoniyatlariga mos keladigan yuklamalarni tanlayish, sportda yuqori natijalariga erishish, saralashni boshqa sport bilan chambarchas bog’liq bo’lgan fanlar (fiziologiya, biomexanika, yuqori tibbiyoti, massaj, psixologiya va hakazo ...) mutaxassislari bilan surʼilikda amalga oshirish; mashg’ulot jarayonida zamonaviy fiziologiya yordamida tezkor axborot olish va samarali tahlil asosida tashkil etishda foydalanish malakalariga ega bo’lishiga asoslanadi.


Ammo, yengil atletikaning disk uloqtirish turlarida mashg’ulotlar rejasiga quyidagicha taqsimlanishi lozim:

- nazariy bilimlar,
- jismoniy tayyorgarlikka,
- funksional tayyorgarlikka,
- texnik tayyorgarlikka,
- psixologik tayyorgarlikka,
- hamda integral tayyorgarliklarni inobatga olgan holda yillik mashg’ulotlarni rejalashtirish dasturi ishlab chiqilmagan. O’quv faqatgina yuqorida komponentlar umumiy qilib soatlarda o’tilgan xolos. Aslida dasturni to’liq ochib berish kerak.

Quydagi rasmlarda ushbu tayyorgarlikni qismlarga bo’lish shakllari uchun komponentlarni taqsimlash berilgan.

3.2-diagramma

**Disk uloqtirish ixtisosligi 1 bosqich o'quv-mashg'ulotlarida komponentlarni taqsimlashi.**



1 bosqichda umumiy soatlar hajmi 144 soatni tashkil etgan bo'lib, unga ko'ra, 144 soat umumiy soatlarni nazariy bilimlarga, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, funksional tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarliklarini foiz hisobida taqsimlab berildi (3.2, 3.3-dagammalar).

3.3-diagramma

**Disk uloqtirish ixtisosligi 2 bosqich o'quv-mashg'ulotlarida komponentlarni taqsimlashi.**



Yuqorida keltirilgan rasmlardan ko'rish mumkinki yillik tayyorgarlik dasturi to'liq ishlab chiqilmagan.

Chunki, boshqa tayyorgarlik dasturlarida yillik mashg'ulotlar yuzlamalari hajmi, bajarilish shiddati, yo'nalishi bo'yicha alohida rejalshtirilgan dastur bo'lishi lozim. Shundagina tor ixtisoslik bo'yicha ya'ni, disk uloqtirishga ixtisoslashgan talaba sportchilar mashg'ulotlar mazmuni va yo'nalishini oldindan bilib, bo'lajak sport qo'shaqlariga puxta tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. Buning uchun biz tomonimizdan yillik mashg'ulotlarni rejalshtirishning optimal variantini ishlab chiqish snaryadga uchib chiqish burchagini optimal darajada uchib chiqishi ta'minlashga qaratilgan metodini ishlash topilish zarur.

**Disk uloqtirish sportchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasining shakllanganligi dinamikasi**

Disk uloqtirishdagi muvofaqiyat asosan sportchi organizmining barcha a'zolari va sistemalarni batartib ishlashiga ba'shliq. Buning uchun avvalo yurak qon tomir, nafas olish va markaziy nerv sistemasi faoliyati yaxshi bo'lishi va tana tuzilishining imkoniosibligi muhum ahamiyat kasb etadi.

Disk uloqtirish turlarida bo'yи va tana og'irligining o'lchamlari, joyinch xarakat apparatining turg'unligi, sportchilarda yuqori sport matjalari erishishiga xizmat qiladi. Quyidagi 3.1-jadvalda Zabolichenok V.B., Nikitushkin V.G., Guba V.P, tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 18–20 yoshli disk uloqtirish sportchilarning jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligi bo'yicha model xususiyatlari keltirilgan.

### Disk uloqtiruvchi sportchilarning (18-20 yosh) jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligi

(V.B.Zadechenok, V.G.Nikitushkin, V.P.Guba, 2000 bo'yicha)

№	O'lchamlar Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari	Disk uloqtiruvchi
1.	Bo'y (sm)	182-186
2.	Vazni (kg)	73-75
3.	Vazn - bo'y indeksi (g/sm)	393-415
4.	Ko'krak qafasiningaylanasi (sm)	92-94
5.	Tana uzunligi (sm)	95-96
6.	Oyoq uzunligi (sm)	82-86
7.	Son uzunligi (sm)	34-36
8.	Boldir uzunligi (sm)	42-43
9.	Bilak uzunligi (sm)	26-28
10.	30 metrga pastki startdan yugurish (s)	4,1-4,0
11.	60 metrga pastki startdan yugurish (s)	7,1-6,9
12.	100 metrga yugurish (s)	3,1-2,3
13.	joyidan turib uzinlikka sakrash (sm)	5,2-5,8
14.	joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)	11,4-10,9
15.	3 kg,li to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga uloqtirish (sm)	35,5-34,0
16.	3 kg,li to'ldirma to'pni oldinga uloqtirish (sm)	3,24-4,20
18	1000 m yugurish	

Sportda yengil atletika sport turidek murakkab turlar yo'q chunki, yengil atletika turlari siklik va atsiklik turlarga bo'linadi. Ularning orasida disk uloqtirish turini ko'rsatish mumkin. Disk uloqtirishda sportchidan, bir tomonidan, maxsus antropometrik va morfologik xususiyatlarni, ikkinchi tomonidan jismoniy sifatlarning yuksak darajada rivojlanganligi, uchinchidan, yuqori darajadagi asal

### 3.1-jadval

Jismoniy rivojlanganligi hamda yashirin imkoniyatlarni muyan darajada yuzaga chiqarishni talab etadi.

Disk uloqtirishda sport mahorati o'sib borar ekan sport sifatlari dinamikasi to'g'ridan-to'g'ri jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir. Disk uloqtirish sportchilarning o'lchamlari, tana og'irligi organizining rivojlanganlik darajasi bix-biri bilan mutonosib bo'lishi kerak.

Biz tomonimizdan disk uloqtirish talaba-sportchilarini jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligi bo'yicha model ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan jismoniy rivojlanganlik va tayyorgarlik ko'rsatkichi 3.2-jadvalda berilgan.

### 3.2-jadval

#### Disk uloqtiruvchi talaba-sportchilarining jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarlik ko'rsatkichlari (n=50)

O'lchamlar Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar
Bo'y (sm)	171,8±6,4
Vazni (kg)	69,7±5,8
Vazn - bo'y indeksi (kg/m <sup>2</sup> )	421,2±17,3
Natija 60(s)	11,1±1,2;
Ko'krak qafasining aylanasi (sm)	82,3±6,7
Oyoq uzunligi (sm)	83,2±4,2
Son uzunligi (sm)	30,2±2,6
Boldir uzunligi (sm)	29,5±2,5
Bilak uzunligi (sm)	15,9±2,2
<b>Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari</b>	
30 metrga pastki startdan yugurish (s)	4,63±0,38
60 metrga pastki startdan yugurish (s)	8,17±0,93
100 metrga yugurish (s)	15,54±0,36
joyidan turib uzinlikka sakrash (sm)	237,38±1,29
joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)	672,91±3,1
3 kg,li to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga uloqtirish (sm)	10,23±0,19
3 kg,li to'ldirma to'pni oldinga uloqtirish (sm)	11,31±0,32

T/r	O'chamlar Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar
19	1000 metrga yugurish(s)	$236 \pm 22.60$
20	Bir oyoqda qo'llarni yonga yoygan xolda muvozanatni saqlab turish vaqtin, min	$6.56 \pm 0.55$

Tadqiqotda disk uloqtirish sportchilarning(18–20 yosh) jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligi bo'yicha model xususiyatlarini ko'p yillar davomida o'tkazilgan tadqiqotlarda o'rtacha ko'rsatkichlari o'rganilib chiqildi.

Bu esa V.G.Nikitushkin bo'yicha berilgan (3.2-jadval) ma'lumotlar bilan taqqoslaganimizda katta farq ko'zga tashlanmadи. V.G.Nikitushkin tomonidan berilgan 18–20 yoshli uloqtiruvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha sportchilarning bo'yи bo'yicha 182–186 sm, ga teng bo'lgan bo'lsa bizning sportchilarda bu ko'rsatkich 165–171 sm.ga teng bo'ldi.

Sportchilarning vazni esa bizning tadqiqotdagi sportchilarga qaraganda o'rtacha ko'rsatkichlari 1 kg.ga kam ekanligi aniqlandi. Vazn-bo'y indeksi bo'yicha ko'rsatkichlar V.G.Nikitushkin bergan ma'lumotga ko'ra 371–421 g/sm<sup>2</sup>.ga teng bo'lgan bo'lsa biz tadqiqotdagi sinaluvchilarning vazn-bo'yи indeksini 377–414 g/sm<sup>2</sup>.ga teng ekanligini aniqladik.

Sportchilarning ko'krak qafasi kengligi (sm), gavda uzunligi (sm), oyoq uzunligi (sm), son uzunligi (sm) boldir son uzunligi (sm) bilak uzunligi (sm) va bo'yicha olingan ko'rsatkichlari V.G.Nikitushkin bo'yicha berilgan ma'lumotlardan pastroq ekanligi kuzatildi. Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha 100 m, 30m 60 m yugurish mashqlari bo'yicha ko'rsatkichlar taqqoslanganda ham bizning sportchilarda natijalar past ekanligi aniqlandi.

Oyoq kuchini aniqlash bo'yicha berilgan joyidan turib uzunlikka sakrash (sm), joyidan turib uch hatlab sakrash (sm) mashqlarida farq esa turlicha ko'rinishga ega bo'ldi. Qo'l mushak kuchini aniqlash bo'yicha byerilgan 3 kg,li to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga uloqtirish (sm), 3 kg,li to'ldirma to'pni oldinga uloqtirish (sm), 3 kg,li to'ldirma to'pni oldinga uloqtirish (sm), 3 kg,

li to'ldirma to'pni pastdan oldinga uloqtirish(sm) mashqlarini o'rganganimizda ko'rsatkichlari bir-biridan farq qilmadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan model ko'rsatkichlar sportchilarning mashg'ulot va musobaqa faoliyati davomida kerakli hisoblanadi. Chunki har qanday sport natijasi ham sportchilarning jismoniy rivojlaganligi va jismoniy tayyorgarligiga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Disk uloqtirish sportchilarning biz tomonimizdan jismoniy tayyorgarligini tadqiqot oldidan quyidagi pedagogik testlar assosida aniqlashga e'tibor qaratdik. Nazorat testida 3 kg,li to'ldirma to'pni pastdan oldinga uloqtirish 30 metrga pastki startdan yugurish (s), 60 metrga pastki startdan yugurish (s), 100 metrga yugurish (s) sportchilarning tezkor kuch sifatlarini ushbu masofada rivojlanganlik darajasi qanday ekanligini aniqlashga e'tibor qaratdik.

Portlovchi kuchini joyidan turib uzunlikka sakrash (sm), joyidan turib uch hatlab sakrash (sm), 3 kg,li to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga uloqtirish (sm), 3 kg, li to'ldirma to'pni oldinga uloqtirish (sm), 60 kg shtanga bilan o'tirib turish kuch chidamliliginı 1000 metrga yugurish (s) aniqladik nazorat testidan foydalanildi. Unga ko'ra olingan nazorat mezonlari ko'rsatkichlari quyidagi 3.3–3.4 jadvallarda berildi.

Disk uloqtirish turlarida yuqori sport natijalariga erishish asosan umumiyligini va maxsus tezkorlik va portlovchi kuch , kuch chidamliligi, qolaversa, uloqtirish texnikasiga bog'liqdir. Albatta buning uchun disk uloqtirish sportchilarni tayyorlash tizimida mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirishga yuklamalar nisbatlarining to'g'ri taqsimlanish zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqa talaba-sportchilar ichidan disk uloqtiruvchi sportchilarni saralash va ularni masqadli tayyorlash lozimligini amalda namoyon etadi.

Tajriba guruhi sinaluvchilarini tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini statistik xarakteristikalarini ( $n=12$ )

No	30 metrga pastda startdan yugurish (s)	60 metrga Pastda startdan yugurish (s)	100 metrga Pastda startdan yugurish (s)	100 metrga salkrash joyidam turib ushunlikka salkrash (sm)	3 kg, h to Jildirma to, pni bosh oridin ga ulogtrish (sm)	3 kg, h to Jildirma to, pni bosh oridin ga ulogtrish (sm)	100 metrga yugurish 3 kg, h to Jildirma to, pni bosh oridin ga ulogtrish (sm)	60 kg shartmaga bilan o'tribi tursish (s)	1000 metrga yugurish Bir oyqada go'llarini muvozamati saqlab yonga yoygan holda tursish (metr)
1.	4,22	7,54	13,96	261,3	646,8	1059	664,6	19	256,6
2.	4,51	7,75	16,88	271,4	584,6	956	677,4	17	214,2
3.	4,24	7,37	14,26	261,3	623,6	894	885,6	23	263,8
4.	5,48	9,64	17,29	219,7	722,7	914	685,7	18	211,6
5.	4,04	9,82	13,68	228,3	737,9	892	880,3	24	254,8
6.	5,32	9,54	17,44	276,27	756,7	754	881,9	16	210,7
7.	4,42	8,74	14,05	216,7	553,7	879	683,7	23	262,7
8.	4,24	9,82	17,38	219,9	586,9	749	679,6	17	212,4
9.	5,39	7,48	16,84	223,9	737,3	1024	878,6	16	260,9
10.	5,18	10,36	16,34	217,3	577,8	798	682,8	23	213,4

No	30 metrga pasteli startdan yuguşurılı (s)	60 metrga pasteli startdan yuguşurılı (s)	100 metrga pasteli startdan yuguşurılı (s)	joyidən turib ümidi uzunlikka salınır (sm)	joyidən turib ümidi hətadab salıraşır (sm)	3 kg, hətadırma toqquşlu ulogitrisch (sm)	3 kg, hətadırma toqquşlu pastdan oldırmış (sm)	bosh ortadan oldırmış (sm)	60 kg shatmaga bilin o, tırib turish (s)	1000 metrga yuguşurılı (s)	Bir oyqada qo'llarını müvazamatlı saplaşdırış trubish (metr)
11.	4,47	7,39	14,38	218,4	743,6	874	876,7	17	266,3	6,7	43,9
12.	5,23	9,64	14,03	232,9	793,3	859	862,6	22	214,3	6,1	35,1
$\bar{X}$	4,73	8,76	15,54	237,28	672,08	887,67	778,29	19,58	236,81	6,58	39,67
$\sigma$	0,54	1,16	1,58	23,17	84,70	95,15	104,01	3,15	25,30	0,90	4,78
V	11,46	13,30	10,19	9,77	12,60	10,72	13,36	16,07	10,69	13,65	12,04

**3.4-jadval Nazorat guruhi jismoniy tayyorlarlik boshidagi ko'rsatkichlarini sinaluvchilarini tadqiqot statistik xarakteristikalarini (n=12)**

№	30 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)		60 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)		100 metrغا yuqurish (s)		joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)		joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)		3 kg, h to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga ulogtirish (sm)		60 kg shhang'a bilan o'tirib pastdan oldinga ulogtirish (sm)		1000 metrغا yuqurish (s)		Bir oyodda qo'llarini younga yoygan holda muvozamatni saqlab turish		Disk ulogtirish (metr)
	30 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)	60 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)	joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)	3 kg, h to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga ulogtirish (sm)	60 kg shhang'a bilan o'tirib pastdan oldinga ulogtirish (sm)	1000 metrغا yuqurish (s)	Bir oyodda qo'llarini younga yoygan holda muvozamatni saqlab turish	Disk ulogtirish (metr)										
1.	5,03	7,35	14,74	224,7	766,4	828	685,4	21,7	262,9	7,3	36,6								
2.	5,14	7,63	17,46	262,7	712,7	998	700,3	17,2	215,9	5,9	33,7								
3.	4,13	7,74	16,84	223,9	746,2	798	683,8	22,6	267,4	7,8	37,6								
4.	4,24	9,37	15,92	217,8	609,4	847	707,4	18,4	216,4	5,4	32,5								
5.	4,15	8,56	17,27	246,5	632,8	996	894,7	22,3	260,7	6,2	39,4								
6.	5,32	9,37	15,49	257,9	613,6	818	900,7	16,7	216,7	7,3	31,6								
7.	4,24	7,84	17,83	224,6	608,3	997	879,4	17,6	266,5	7,4	38,6								
8.	4,84	9,76	13,87	217,9	612,7	828	689,4	23,9	214,7	7,5	30,4								
9.	4,36	9,73	16,73	218,7	784,9	976	894,8	21,6	254,8	6,4	37,8								

52

№	30 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)		60 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)		100 metrغا yuqurish (s)		joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)		joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)		3 kg, h to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga ulogtirish (sm)		60 kg shhang'a bilan o'tirib pastdan oldinga ulogtirish (sm)		1000 metrغا yuqurish (s)		Bir oyodda qo'llarini younga yoygan holda muvozamatni saqlab turish		Disk ulogtirish (metr)
	30 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)	60 metrغا pastdi startdan yuqurish (s)	joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)	3 kg, h to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga ulogtirish (sm)	60 kg shhang'a bilan o'tirib pastdan oldinga ulogtirish (sm)	1000 metrغا yuqurish (s)	Bir oyodda qo'llarini younga yoygan holda muvozamatni saqlab turish	Disk ulogtirish (metr)										
10.	4,29	8,97	13,87	249,8	616,8	804	708,4	17,7	215,2	6,5	29,6								
11.	5,18	8,98	15,85	219,4	757,4	813	866,5	17,9	269,9	7,7	35,9								
12.	4,22	9,28	14,76	251,2	622,9	958	881,4	20,7	217,8	5,9	37,7								
$\bar{x}$	4,60	8,72	15,89	234,59	673,68	888,42	791,02	19,86	239,91	6,78	35,21								
$\sigma$	0,46	0,86	1,37	17,42	72,60	86,79	100,12	2,52	25,13	0,82	3,40								
$V$	10,10	9,92	8,63	7,43	10,78	9,77	12,66	12,68	10,48	12,06	9,55								

53

Biz disk uloqtiruvchi talaba-sportchilardan 50 nafari II razryad va I razryaga ega bo'lganlaridan 24 nafarini saralash mezonlari asosida tanlab olindi va ularni ikki guruhi teng bo'lgan holda 12 nafardan tajriba va nazorat guruhi ajratdik. Jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida tadqiqot oldidan pedagogik tajriba o'tkazdik.

Unga ko'ra tezkor kuch sifatini aniqlashda 30 metrga pastki startdan yugurish (s) nazorat guruhi sinaluvchilarini o'rtacha  $4,60 \pm 0,46$  s. natijani qayd etgan bo'lsa, tajriba guruhi sinaluvchilarini ham ushbu masofani yugurib o'tish uchun o'rtacha  $4,73 \pm 0,54$  s vaqt sarflanganligini ko'rish mumkin.

60 metrga pastki startdan yugurish (s) yugurishda tajriba guruhi sinaluvchilarining tezkor-kuchining o'rtacha natijasi  $8,76 \pm 1,16$  s.ga teng ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi esa 60 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish bo'yicha o'rtacha natija tajriba guruhi bilan teng  $8,72 \pm 0,86$  s. ekanligi kuzatildi.

100 metr masofani yugurib o'tish tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha ko'rsatgichi  $15,54 \pm 1,58$  s.ga teng ekanligini olingin natijada ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi sinaluvchilarida 100 metrga masofani yugurib o'tish bo'yicha o'rtacha ko'rsatgich  $15,89 \pm 1,37$  s ekanligi o'tkazilgan tajriba davomida aniqlandi.

Portlovchi tezkor-kuchni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan joyidan turib uzunlikka sakrash testida tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi  $237,58 \pm 23,17$  sm.ga, nazorat guruhidagi ushbu test bo'yicha  $234,59 \pm 17,42$  sm. ni tashkil etgan.

Portlovchi tezkor-kuchni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan joyidan turib uch xatlab sakrash testida tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi  $672,08 \pm 84,70$  sm.ga, nazorat guruhidagi ushbu test bo'yicha  $673,68 \pm 72,60$  sm.ni tashkil etgan.

Navbatdagi nazorat mashqida 3 kg to'ldirma to'pni ikki qo'llab ustidan oldinga uloqtirish bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha natijasi esa  $887,67 \pm 95,15$  sm.ga teng ekanligi bilan ifodalandi. Nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha  $888,42 \pm 86,79$  sm.ga teng ekanligi olingan natijadan ko'rishimiz mumkin.

Navbatdagi nazorat mashqida 3 kg.li to'ldirma to'pni pastdan oldinga uloqtirish (sm) bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha natijasi esa  $778,29 \pm 104,01$  sm.ga teng ekanligi bilan ifodalandi. Nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha  $791,02 \pm 100,12$  sm.ga teng ekanligi olingan natijadan ko'rishimiz mumkin. Kuch sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan testda 60 kg shtanga bilan o'tirib turish nazorat mashqida tajriba  $19,58 \pm 3,15$  kg teng ekanligini kuzatish mumkin. Nazorat guruhi sinaluvchilarini esa  $19,86 \pm 2,52$  kg o'rtacha natijalarini ekanligi aniqlandi.

Maxsus tezkor chidamlilik bo'yicha o'tkazilgan 1000 metrga yugurish vaqtiga (s) testimizda tajriba guruhi sinaluvchilarini o'rtacha natijasi  $236,81 \pm 25,30$  s ga tengligi bilan ifodalandi. Nazorat guruhidagi esa ushbu masofani bosib o'tish vaqtiga o'rtacha  $239,91 \pm 25,13$  s. natijaga teng ekanligi o'tkazilgan tadqiqotda aniqlandi.

Navbatdagi nazorat mashqida bir oyoqda qo'llarni yonga yoygan holda muvozanatni saqlab turish vaqtiga, min bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha natijasi esa  $6,58 \pm 0,90$  sm.ga teng ekanligi bilan ifodalandi. Nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha  $6,78 \pm 0,82$  sm.ga teng ekanligi olingan natijadan ko'rishimiz mumkin. So'nggi o'tkazilgan testimiz disk uloqtiruvchi sportchi talaba-qizlarning uloqtirish tayyorgarligini aniqlash uchun o'tkazilgan diskni uzoqroq masofaga uloqtirish nazorat topshirig'ida tajriba guruhi sinaluvchilarini o'rtacha natijasi  $39,67 \pm 4,78$  s ga tengligi bilan ifodalandi.

Nazorat guruhida esa ushbu disk uloqtirish natijasi o'rtacha  $35,21 \pm 3,40$  s. natijaga teng ekanligi aniqlandi. Ishning yakuniga kelib ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha yakuniy nazorat testlarini qabul qildik va olingan natijalarni qiyosiy tahlil asosida o'rganib chiqdik.

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallari va shaxsiy tajriba ma'lumotlariga ko'ra, tezkor kuch sifatini aniqlashda testini qo'lladik. Bunda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan 11 ta ko'rsatkich bo'yicha nazorat mezonlari olindi. Olingan natijalar pedagogik tajribaga jalg etilgan tajriba guruhi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarligini baholash imkonini berish bilan bir qatorda ularga yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini optimallashgan variantini ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi.

Bu esa biz tomonimizdan pedagogik tajriba oldi natijalariga asoslanib disk uloqtiruvchi talaba-sportchilar uchun yillik tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarining optimallashgan rejasini ishlab chiqish imkonini berdi.

#### **§ 2.4. Disk uloqtiruvchi sportchilarning texnik biomexanik tahlil asosida tayyorgarlik dinamikasini shakllantirish**

Yengil atletika turlari sonining ko'pligi va ularning ayrimlari texnik jihatdan bajarilishi oson ko'ringani bilan uning ma'romiga yetkazib bajarish birmuncha qiyin hisoblanadi. Shu jumladan disk uloqtirishda texnik harakatlar tashqaridan qaragan insonlar uchun yengil tuyuladi lekin, diskni ushlashdan to uloqtirungungacha bo'lgan har bir harakatni texnik jihatdan ma'romiga yetkazib bajarish uchun sportchilarga kami bilan 4–5 yil ba'zida esa 5–6 yillar zarur bo'ladi.

Texnik harakatlar oyoq, qo'l va gavda uyg'unligida bajarish sport natijasiga uzviy bog'liq hisobalanadi. Ya'ni har bir aylanib uloqtirishda qadamlar oyoq panjalari, qo'l harakatlari bu yerda oyoqqa nisbatan qo'llar proporsional harakatlanishni talab etadi.

Ilmiy uslubiy adabiyotlarda oyoq harakatlari texnikasi tahlili bo'yicha yetarlicha manbalar mavjud, gardish ichida gavda holati, aylanish tezlanishi, hamda uloqtirshgacha va hakozolar sportchilarni biomexanik harakatlarini ifodalaydi ya'ni son, tizza, oyoqlar qo'l va boshqalar. Buni disk uloqtirish vaqtida amaliy tajribasidan ko'rishimiz mumkin,

Aynan shu jihatlarga murabbiylar ko'proq e'tibor qaratish barobarida qo'llar harakati texnikasiga hamda muoazanat saqlab aylanishga kam vaqt ajratishmoqda bu esa sportchilarni uloqtirish texnikasiga, qolaversa tejamli harakatiga ta'sir etadi. Natijada ularning kuch sifatiga oz bo'sada o'z ta'sirini ko'satishi aniq.

Barchaga ma'lumki, qo'llar harakati oyoq harakatining samarali ishlashiga yo'naltirib kompensatsiya vazifasini o'taydi. Shuningdek, gavdaning yuqori qismining samarali ishlashi nafaqat qo'llar harakatini oldinga ishlashi balki, oyoqlar harakatini va aylanish tezlashishiga olib keladi natijada sportchi tezligi ta'minlanadi.

Aylana bo'ylab uloqtirish texnikasi o'rgatishning eng samaradorli usuli yordamchi vositalar sifatida oyoq,tos,hamda yelka kamari mashqlarni oqilona bajarish hisoblanadi. Yengil atletikaga ixtisoslashgan yangi boshlovchilar, malakali va yuqori malakali uloqtirish mashg'ulot amaliyotida trenajyor qurilmasidan oqilona foydalanishi orqali texnik harakatni minimallashtirishga harakat qiladi, bu odatda tirsak bo'g'imlarini burchagini optimal holatini saqlab turadi, o'z navbatida ortiqcha harakatlarini kamaytiradi, asosiysi chastotani kerakli darajaga oshiradi.

Sh.S.Mirzanov tomonidan ishlab chiqilgan maxsus trenajyor qo'llar harakati texnikasini takomillashtirish uchun balki qo'l mushak kuchini oshirish uchun hamdir, shuningdek uloqtirishda yengil atletika mashqlarini mashg'ulot jarayonida qo'llashda ishlataladi. Yengil atletikaning disk uloqtirish ixtisoslashgan sportchilarning yuqori sport natijalariga erishish uchun ularning texnikasini takomillashtirib borish zarur bo'ladi.

Masalan yuqorida berilgan fikrlarga muvofiq oyoq harakatlarini tez va faol ishlashi uchun qo'llarning proporsional holatda tezlik bilan ishslash imkoniyatini yaratadi. Disk uloqtirishda snaryadning uchib chiqish tezligi va diskning o'rtacha tezligi, hamda uchib chiqish masofasiga e'tibor qaratib turish yuqori samaradorlikka olib keladi.

Disk uloqtirish yoki umuman sportning barcha turlarida raqobat va sport natijasi kun sayin rivojlanishi, sport natijalari va texnik harakatlar san'at darajasiga ko'tarilib borayotgan bir davrda sportning siklik turlarida natijalarni yuksaltirish texnik jihatlarga borib taqalmoqda. Bu disk uloqtirish mashg'ulot va musobaqa faoliyati davomida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Musobaqlarda yuqori natijaga erishish, avvalambor mashg'ulotlarda yangi texnologiyalarni qo'llash, tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali rejorashtirish bilan bog'liqidir.

Albatta rejorashtirishda texnik tayyorgarlikka ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki sportchilarni tayyorlash tizimida texnik tayyorgarlik sportchi tomonidan ko'rsatiladigan sport natijani yuqori yoki past darajada bo'lshini belgilab beradi. Shuning uchun ham tayyorgarlik yuqori darajada shakllangan bo'lsa sport natijasi ham yuqori ko'rsatkichini tashkil etadi. Shunday ekan yengil atletika turlarida ham sportchilarni texnik jihatdan tayyorlash tizimi va uslublarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan keng foydalanish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Albatta muammolar o'z navbatida disk uloqtirishda yuqori malakali sportchilarga zahira sportchilarini tayyorlashda o'quv – mashg'ulot va musobaqa jarayonlarini ilmiy asosda tashkil qilish va shu orqali iste'dodli zahira sportchilarini tayyorlash ko'lamini kengaytirish muhimligi ko'zda tutiladi.

Disk uloqtirishda sportchilarning yillik tayyorgarlik davrlarida ularning texnikasini rivojlantirish va mashg'ulot yuklamalarini rejorashtirishda optimallashgan holda zahira

